

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 811.512.133:81.373.611

SADATOVA DILAFRUZ MUHIDDIN QIZI

“DEVONU LUG‘OTI-T-TURK” ASARIDAGI TURKIYCHA
LEKSEMALAR ETIMOLOGIYASI TADQIQI

70230101– Lingvistika: (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha magistr akademik

darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

f.f.f.d. (PhD) N.Amonturdiyev

Termiz – 2023

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti
rektorining 2022-yil 2-apreldagi №20-T/M sonli buyrug‘i asosida
tasdiqlangan.**

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.


Magistrlik dissertatsiyasining elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:




Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (68 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)



Ilmiy rahbar:

 f.f.f.d (PhD) N.R.Amonturdiyev

Kafedra mudiri:

 f.f.f.d (PhD) N.R.Amonturdiyev

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:

 p.f.f.d (PhD) A.B.Narbayev


70230101 - Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti Sadatova Dilafrozning “Devonu lug‘oti-t-turk” asaridagi turkiycha leksemalar etimologiyasi tadqiqi mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYASI

Tadqiqot obyekti: Solih Mutallibovning tarjimasini va nashri asosida tayyorlangan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asari, G‘ani Abdurahmonov va Solih Mutallibovlar ishtiroki va tahriri ostida tayyorlangan “Devonu lug‘oti-t-turk” indeks-lug‘ati, Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar)”.

Ishning maqsadi: “Devonu lug‘oti-t-turk” asaridagi turkiy so‘zlarning etimologiyasini aniqlash, ularning shakli hamda mazmuniy etimologik xususiyatlarini ochib berish, bugungi kunda qay tarzda ifodalanayotganligini o‘rganish ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadini tashkil qiladi.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqotning metodologik asosini Solih Mutallibov tarjimasini hisoblangan “Devonu lug‘oti-t-turk” asari va undagi turkiy so‘zlarning etimologiyasi va bugungi kunda qo‘llanilish darajasining qiyosiy tahlili tashkil etadi. Bu ishda tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy kabi usullar qo‘llanildi.

Tadqiqot yangiligi: Mazkur bitiruv malakaviy ishida turkiy tilning etimologiyasini mazkur asardagi so‘zlar orqali aniqlash va o‘rganish uchun u bilan bog‘liq ilmiy qarashlar jamlab o‘rganildi. Mavzuni yoritishda shu mavzuga oid manbalar: kitoblar, dissertatsiyalar va monografiyalar o‘rganildi.

Amaliy ahamiyati: Ishning ilmiy-nazariy xulosalari, unda tahlil qilingan faktik material va chiqarilgan umumlashmalardan “Devonu lug‘oti-t-turk” asaridagi turkiy so‘zlarning etimologiyasini chuqur tadqiq etish bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy ahamiyatini tashkil etadi.

Tadbiq etish darajasi: Mavzuga oid darsliklarini qiziqarli, tushunarli hamda yangi uslublarda ko‘rsatish va ularning mohiyatini ochib berishda o‘quvchi va talabalarning mazkur fanga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi va ularni fikrlashga undaydi.

Qo‘llanish sohasi: Oliy ta‘lim va umumiy o‘rta ta‘lim maktablari.

70230101 - Master's thesis of Sadatova Dilafroz, a master's student of Linguistics (Uzbek language) on the study of the etymology of Turkish lexemes in the work "Devonu Lug'oti-t-Turk"

ANNOTATION

Objects of research: "Devonu Lug'oti-t-Turk" by Mahmud Koshg'ari "Devonu Lug'oti-t-Turk" by Mahmud Koshgari, translated and published by Salih Mutallibov, index-dictionary "Devonu Lug'oti-t-Turk" prepared with the participation and editing of Gani Abdurahmanov and Salih Mutallibov, "Etymological dictionary of the Uzbek language (Turkish words)" by Shavkat Rahmatullayev.

The purpose of the work: to determine the etymology of Turkish words in the work "Devonu lug'oti-t-turk", to reveal their formal and substantive etymological features, to study how they are expressed today is the main goal of this graduation qualification work.

Research methods: In this graduation thesis, the etymology of the Turkish language was studied in order to determine and study the words in this work. The sources related to this topic: books, dissertations and monographs were studied in order to cover the topic.

Practical importance: the scientific-theoretical conclusions of the work, the factual material analyzed in it and the in-depth study of the etymology of Turkish words in the work "Devonu Lug'oti-t-Turk" constitute the scientific-theoretical importance of the graduation work.

The research can be widely used in the development of lessons related to this topic, as well as in educational materials designed on the basis of the new program, in the organization of specific lessons in general secondary schools and special secondary educational institutions with concrete examples.

Application level: Presenting textbooks on the subject in interesting, understandable and new ways and revealing their essence increases the interest of pupils and students in this subject and encourages them to think The results

obtained from this dissertation work can be used in specific systems of linguistics, history of linguistics, mother tongue and literature textbooks in general secondary education and higher educational institutions of our Republic.

Field of application: Higher education and general secondary schools.

“DEVONU LUG‘OTI-T-TURK” ASARIDAGI TURKIYCHA LEKSEMALAR ETIMOLOGIYASI TADQIQI

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. “DEVONU LUG‘OTI-T-TURK” ASARI LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA	
1.1 “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida tilshunoslik sohalariga oid qarashlarning tadqiqi.....	7
1.2. “Devonu lug‘oti-t-turk” turkiycha leksemalar etimologiyasini aks ettirgan lug‘at sifatida	16
Bob bo‘yicha xulosa.....	27
II BOB. “DEVONU LUG‘OTI-T-TURK”DA OT SO‘Z TURKUMIGA OID TURKIYCHA LEKSEMALAR ETIMOLOGIYASI TAVSIFI	
2.1. “Devonu lug‘oti-t-turk”da ot so‘z turkumiga oid tub leksemalar etimologiyasi.....	29
2.2 “Devonu lug‘oti-t-turk”da ot so‘z turkumiga oid yasama leksemalar etimologiyasi	38
Bob bo‘yicha xulosa.....	50
III BOB. “DEVONU LUG‘OTI-T-TURK”DA FE‘L SO‘Z TURKUMIGA OID TURKIYCHA LEKSEMALAR ETIMOLOGIYASI TAVSIFI	
3.1. “Devonu lug‘oti-t-turk”da fe‘l so‘z turkumiga oid tub leksemalar etimologiyasi	51
3.2. “Devonu lug‘oti-t-turk”da fe‘l so‘z turkumiga oid yasama leksemalar etimologiyasi	59
Bob bo‘yicha xulosa.....	67
UMUMIY XULOSA	69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	71

Kirish

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “Ta’lim tizimining bosh maqsadi mustaqil fikrlaydigan avlodni shiddat bilan o’zgarayotgan global dunyoda yashab ketishga tayyorlash, ularni boshqa mamlakatlardagi tengqurlariga nisbatan raqobatbardosh qilish va shu orqali millatning ravnaqini ta’minlashdir. Yoshlari kasbsiz, mahorat va malakasiz, mustaqil fikrlamaydigan, o’rganishni o’rganmagan millatlar zaiflashib, boshqa millatlarga yem bo’lishini tarix ming bir marta isbotlab bergan. Shunday ekan, hozir bizga ta’limning yangi islohoti kerak”¹, – degan so’zlari ta’limga, qolaversa, adabiy merosimizga yangicha yondashuvning paydo bo’lganligi, unga nisbatan diqqat-e’tiborning ortganligini va milliy o’zligimizni anglash davlat siyosati darajasiga ko’tarilganligidan dalolat beradi. O’zbek tilshunosligi bugungi kunga qadar bir qancha o’ziga xos davriy bosqichlarni bosib o’tdi. Ushbu vaqt oralig’ida o’zbek tilining anchayin muammoli, yechilmagan jihatlari tom ma’noda o’rganilib, fanga ma’lum qilindi, o’rganilgan soha va yo’nalishlar yuzasidan kerakli ma’lumotlar jamlanib darslik, kitob va shu kabi o’qitish materiallari ham tayyorlandi. Bu yo’lda tilshunos olimlarimiz barakali va sermahsul faoliyat olib borishdi. Ularning mehnati, mashaqqatining samarasi o’laroq o’zbek tilining leksik, grammatik, morfologik, fonetik kabi sathlarida nazariy manbalar, ilmiy asoslar yaratildi. Ona tilimizning o’ziga xos va serqirra jihatlari namoyon bo’ldi. Ammo yutuqlar bilan bir qatorda hali hamon o’rganilishi lozim va zarur bo’lgan muammolarimiz yetarlichani tashkil qiladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi orqali o’zbek tilining tub negizidagi so’zlar haqida ma’lumotlar berilib, ularni yoritishda Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lu’oti-t-turk” asarida keltirilgan va hozirgi kunda ham iste’molda bo’lgan turkiycha leksemalarning etimologiyasi keng ko’lamda tadqiq etiladi. Bugungi kunda iste’molda bo’lgan so’zlar qomusiy olim yashagan davri (XI asr)da qanday

¹ Мирзиёев.Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз.-Тошкент: “Ўзбекистон”. 2017. 488-б.

nomlanganligi, ularning etimologiyasi va hozirga qadar qay tarzda yetib kelganligi mushohada qilinib, o'xshash va tafovutlar haqida ma'lumotlar beriladi. Va, albatta, bir til oilasiga birlashgan millatlar tillari ham o'rganilib, ularning farqli va o'xshash jihatlari solishtirilib, ulardan misollar keltiriladi. Bu esa mazkur so'zlarning qadimiy ildizlarini aniqlash, ularning manbalari va evolyutsiyasi bosqichlarini tahlil qilish, shuningdek, bu so'zlarning tilshunoslikdagi tutgan o'rni va ahamiyatini ilmiy tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Ana shularning barchasi mazkur ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Ishning o'rganilish darajasi. "Devonu lug'oti-t-turk" 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan. Bu asar qo'lyozmasini ko'chirgan kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiyning yozishicha, u nusxani Mahmud Koshg'ariyning o'z dastxatidan olgan. "Devonu lug'oti-t-turk" 1915-1917-yillarda uch tomndan iborat qilib, Istanbulda nashr etiladi. Shu nashri asosida K.Brokkelman asarni 1928-yilda nemischaga tarjima qilib, nashr ettiradi. 1939-yilda esa Anqarada Bosim Ataliy tarjimasida usmonli turk tilida bosiladi. 1939-1941-yillarda hozirgi turk tiliga tarjima qilinib nashr etilgan. G'arbiy Yevropada Koshg'ariyshunoslikni sharqshunos olim Karl Brokkelman boshlab beradi. U 1920-yilda Koshg'ariy haqida asar yozib, bu asarni "Devonu lug'oti-t-turk"dan olingan ayrim so'zlar: ism va joy nomlarining ro'yxati bilan birgalikda kitob shaklida nashr ettirdi. Bu kitobga K.Brokkelman nemischa so'zboshi ham yozgan. K.Brokkelman tomonidan "Devonu lug'oti-t-turk"ning til va adabiyot uchun ahamiyati haqida yozgan ko'plab ilmiy-ommabop maqolalari, ilmiy tadqiqotlari G'arbiy Yevropada Mahmud Koshg'ariyni keng jamoatchilikka tanitishda ijobiy rol o'ynadi. Mahmud Koshg'ariy merosi bilan shug'ullangan olimlar: V.V.Bartold, A.I.Samoylovich, S.E.Malov, S.P.Tolstoy, A.H.Kononov, A.B.Borovkov, I.Y.Krachkovskiy, B.I.Belyayev, N.A.Baskakov, K.K.Yudaxin, A.M.Shcherbak kabilar hisoblanadi. O'zbekistonda Mahmud Koshg'ariyning hayoti ijodini, xususan uning "Devonu lug'oti-t-turk" asarini o'rganish asosan 1930-yillardan boshlandi.

O'zbek olimlaridan bir qanchasi, xususan, filologiya fanlari doktori Solih Mutallibov o'zining butun kuch-g'ayratini ushbu asarni chuqur o'rganishga

bag'ishladi va asarning tarjimasini yaratish orqali tilshunosligimizga va uning ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'shdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayni paytda B.Qosimov, H.Boltaboyev va H.Dadaboyevlar birgalikda ushbu asar ustida sermahsul faoliyat olib borishmoqda.

Tadqiqotning obyekti. Solih Mutallibovning tarjimasini va nashri asosida tayyorlangan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asari, G'ani Abdurahmonov va Solih Mutallibovlar ishtiroki va tahriri ostida tayyorlangan "Devonu lug'oti-t-turk" indeks-lug'ati, Shavkat Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar)".

Tadqiqotning predmeti. "Devonu lug'oti-t-turk" asaridagi turkiycha leksemalar(so'zlar) etimologiyasi. Ot va fe'l so'z turkumlaring etimologiyasini aniqlash. Ularning bugungi kundagi qo'llanilish holati.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: "Devonu lug'oti-t-turk" asaridagi turkiy so'zlarning xususan ot va fe'l turkumiga oid so'zlarning shakliy hamda mazmuniy etimologiyasi aniqlash. Ularning hozirgi davrgacha qanday mazmuniy va shakliy jihatdan o'zgarganligini va bugungi kunda qay tarzda ifodalanayotganligini o'rganish ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadini tashkil qiladi. Ushbu tadqiqotning vazifasi esa "Devonu lug'oti-t-turk" asaridan turkiy so'zlarni to'plab, tahlil qilish; ularning etimologiyasini o'rganish; bugungi kunda qanday qo'llanilishini tahlil qilish; o'zgarishlarga uchragan yoki uchramaganligini misollar orqali solishtirish; shuningdek so'z turkumlarining etimologiyasi jihatidan ot va fe'l so'z turkumlarini alohida o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur bitiruv malakaviy ishda turkiy tilning etimologiyasini mazkur asardagi so'zlar orqali aniqlash va o'rganish uchun u bilan bog'liq ilmiy qarashlar jamlab o'rganildi. Mavzuni yoritishda kitoblar, dissertatsiya va monografiyalar o'rganildi. Hozirgi kunda ham devondagi ba'zi leksemalar keng qo'llanilayotganligi va tadqiqotda aynan ularning etimologiyasiga alohida ta'rif berilganligi, ulardagi shakliy, mazmuniy, grammatik o'zgarishlarni misollar orqali yoritish kabi masalalar aniqlanganligi tadqiqotning ilmiy yangiligi hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodlari. Tadqiqotning metodologik asosini Solih Mutallibov tarjimasi hisoblangan “Devonu lug‘oti-t-turk” asari va undagi turkiy so‘zlar etimologiyasi va bugungi kunda qo‘llanilish darajasining qiyosiy tahlilini qilish va misollar orqali keltirish tashkil etadi. Bu ishda, tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy kabi usullar qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy-nazariy xulosalari, unda tahlil qilingan faktik materiallar va chiqarilgan umumlashmalardan “Devonu lug‘oti-t-turk” asaridagi turkiy so‘zlarning etimologiyasini chuqur tadqiq etish bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy ahamiyatini tashkil etadi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 76 sahifani tashkil qiladi.

I BOB. “DEVONU LUG‘OTI-T-TURK” ASARI LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

1.1 “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida tilshunoslik sohalariga oid qarashlarning tadqiqi

Turkshunoslik ilmining asoschisi Mahmud Koshg‘ariy ibn Husayn ibn Muhammad ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan Qoraxoniylar sulolasiga mansub bo‘lgan. U XI asr boshlarida Balasog‘unda (hozirgi Qirg‘izistondagi To‘qmoq shahri yaqinida) tug‘ilgan. Otasi Husayn ibn Muhammad o‘sha davrlardagi Barsg‘an eliga amirlik qilganligi haqida ma‘lumotlar bor. Mahmud Koshg‘ariy boshlang‘ich ma‘lumotni o‘zining qishlog‘ida, yuqori ma‘lumotni esa Koshg‘ardagi madrasalarida olgan, arab, fors va turkiy tillarni mukammal va puxta egallagan. So‘ngra u Buxoro, Samarqand, Marv va Nishopur kabi shaharlarda o‘zining bilimni yanada oshirgan². Mahmud Koshg‘ariy Bolosog‘unda tug‘ilib, shu yerda yigitlik chog‘larini kechirgan bo‘lsada, uzoq yillar Qoshg‘ardan boshlab butun Movorounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoro, Hozirgi Shimoliy Afg‘onistonga qadar cho‘zilgan turkiy o‘lkalarni, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chingillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlari va qishloqlarini va yaylovlarini kezib chiqadi. Turli sheva va lahja xususiyatlarini o‘rganadi, ularni adabiy til bilan chog‘ishtirib o‘z ishi uchun nihoyatda boy materiallarni to‘pladi. Ushbu to‘plagan ma‘lumotlari asosida “Devonu lug‘oti-t-turk” tarjimasini “Turkiy so‘zlar devoni” asarini yaratdi. Mazkur asar abbosiyalar sulolasiga mansub hukmdor Abulqosim Abdulloh binni Muhammadil Muqtadoga bag‘ishlangan. Ushbu asar turkiy xalqlarning tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etimologik lug‘atlarning barcha unsurlarini o‘zida qamrab olgan dastlabki universal lug‘at hisoblanadi. Shu sababli ham asar o‘zining muallifini dunyoga va ilm fanga ulug‘ tilshunos, adabiyotshunos, tarixchi, etnograf, geograf va boshqa ko‘plab fanlardan yaxshi xabardor bo‘lgan qomusiy olim sifatida tanitdi. Olim mazkur asarida turkiy xalqlarning tillaridagi keng qo‘llaniluvchi ko‘plab so‘zlarning ma‘nosini o‘sha davr tamoyiliga mos ravishda

² Абдурахмонов.Ф. “Кошғарий” Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. 2006. 229-б

arab tilida izohlab berdi. O‘zining fikrlarini dalillash va isbotlash uchun turkiy xalqlarning maqollaridan, matallaridan va badiiy adabiyoti namunalaridan keltirgan holda keng va o‘rinli foydalandi. “Devonu lug‘oti-t-turk” Mahmud Koshg‘ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asaridir (1072-1074).

Ushbu asarda XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyo va G‘arbiy Xitoy hududlarida istiqomat qilgan turkiy urug‘ va qabilalar haqida, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi haqida, shuningdek, ushbu hududlarning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma‘lumotlar ham yozib qoldirilgan. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘oti-t-turk”(turkiy so‘zlar lug‘ati) asarini yozish uchun turkiy qabilalar yashaydigan ko‘plab shahar va qishloqlarni kezib chiqqan. Muallif o‘zining hayoti mobaynida jami 14 yillik(taxminan 1057-yildan to 1071-yilgacha) safari davomida juda muhim va kerakli ilmiy ko‘lamga ega bo‘lgan tarixiy va ilmiy materiallarni to‘plagan. Lug‘at tuzishda arab tilshunoslari yaratgan an‘anadan unumli foydalangan holda, asarni yozishda turkiy qonuniyatlarini birinchi o‘ringa olgan holda ushbu kitobga tartib berdi.

Muallifning ta’kidlashicha ushbu kitob “oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma‘lum bo‘lmagan alohida tartibda” tuzilgan³. Muallif qomusiy olim o‘z kitobida 8000 ga yaqin turkiy so‘zlarni guruhlashtirib alohida-alohida bo‘limlarga ajratib berdi, va ularning har birini (110 hudud, ko‘l va daryo, 40 elat va qabila nomlari), turkiy tilda izohlari bilan keltirdi. Kitobdan 242ta she‘r, 262ta maqol va matallar o‘rin olgan. Biz uchun eng qiziqarlisi shundaki, muallif asarida qo‘llagan 875 ta so‘z va 262 ta maqol, matallar hech qanday o‘zgarishsiz turkiy tilimizga o‘z holicha yetib kelgan bo‘lib, bugungi kunda keng iste’molda bo‘lgan leksemalar hisoblanadi. Muallif asarni 1072-1074- yillarda Bag‘dod shahrida yozib bitirdi⁴.

“Devonu lug‘oti-t-turk” asari dastlabki filologik tadqiqot manbayi hamda turkiycha leksemalarning etimologiyasiga oid bo‘lgan qarashlar keltirilgan birinchi qomusiy lug‘at ham hisoblanadi. Ayni damda biz ushbu asarga faqat lug‘at sifatida qarashimiz noto‘g‘ri. Chunki, unda Markaziy Osiyo xalqlarining xalq og‘zaki

³ Абдурахмонов.Ф. Девону луғоти-т-турк ҳақида “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. 2006. 249-б

⁴ Абдурахмонов.Ф. Девону луғоти-т-турк ҳақида “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. 2006. 250-б

ijodiga xos bo'lgan namunalarni, shuningdek ularga xos bo'lgan noyob va qimmatli ma'lumotlarni ham kuzatishimiz mumkin.

Mahmud Koshg'ariy mazkur devonning kirish so'zida shunday yozadi: "Men Falak turkiylar zaminida davlat yaratganini ko'rdim. Falak bu xalqlarni "turkiy" deya atadi va ularni davlat boshqaruviga qo'ydi. Hukmdorlar turkiylar bo'lib, hokimiyat ularning qo'lida edi, ular odamlarni boshqardi. Odamlar o'z hukmdorlarini qo'llab-quvvatlardi, u bilan baravar kurashar edi va turkiylar yomon ishlardan saqlanishga qodir edilar. Turkiylar qo'llab-quvvatlashlari uchun ham ularning tilida so'zlamog kerak edi"⁵. Bizga ma'lumki Qoraxoniylar davrida turkiy tildagi adabiyot jadal sur'atlarda taraqqiy etdi. Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar shevalarini tadqiq qiluvchi asari orqali mumtoz turkiy adabiyot va she'riyat, xalq og'zaki ijodi ravnaqi uchun zamin hozirladi, turkiy xalqlar adabiy tilini ishlab chiqdi, unga sayqal berdi. Natijada turkiy she'riyatning asosiy janrlari ham shakllandi. Mahmud Koshg'ariy ushbu asari bilan turkiy tilning ahamiyati arab tilinikidan hech ham kam emasligini isbotladi. Til va adabiyotning o'ziga xos qadimiy obidasi bo'lgan "Devonu lug'oti-t-turk" yaratilganidan buyon 10 asrdan oshiq vaqt o'tgan bo'lsada u hamon turkiy xalqlarning tarixini, tilini o'rganishda muhim va betakror manba hisoblanadi.

Mahmud Koshg'ariyning devoni jahon ilm-fani va madaniyatining rivojiga qo'shilgan ulkan hissa hisoblanadi. Qo'lyozmaning eng qadimiy va yagona nusxasi 1226-yilga oid bo'lib, 1914-yilda olim va kutubxonachi Ali Emir tomonidan Istanbul shahri bozorida ko'chirma nusxa ko'rinishida topilgan bo'lib, hozirgi vaqtda ham Istanbul shaxrining milliy kutubxonasida saqlanib kelinmoqda.

"Devonu lug'oti-t-turk"ning qo'lyozmasi 1914-yilda Turkiyadagi Diyorbokr shahrida topilgan. Jami 319 sahifali bu qo'lyozma hozirda ham Istanbulda saqlanadi. Ushbu nusxa asar yozilganidan salkam 200 yildan keyin, ya'ni Mahmud Koshg'ariyning o'z qo'li bilan yozilgan nusxadan kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotihal - Soviy Aldamashqiy tomonidan ko'chirilgan. Allomaning "Devonu

⁵ Кошғарий.Маҳмуд. Девону луғоти-т-турк. II жилд -Тошкент: Ўзбекистон СССР Фан нашриёти. 1940. 3-б.

lug‘oti-t-turk” asarining eng dastlabki noshiri turk olimi, Rifat Bilge bo‘lib, aynan u devonni birinchi bo‘lib turk tiliga tarjima qilgan⁶.

Asar Solih Mutalibov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan va 1960-1963 yillarda alohida III tomlik qilib Toshkentda nashr etilgan. “Devonu lug‘oti-t-turk” arab tilida yozilgan, 8mingdan ortiq turkiy so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish maqsadida arabcha harakatlar (harflarda unlilarni ifodalash va talaffuzni tartibga solish uchun qo‘llaniluvchi ost-ust ishoralar)dan foydalanilgan holda yozilgan. Bunda, albatta muallif juda katta qiyinchiliklarga uchragan, sababi arabcha harf va alif, vov, yo ishoralari bilan turkiy tovushlarning talaffuzini va imlosini berib bo‘lmas edi. Turkiy tildagi mavjud bo‘lgan cho‘ziq va qisqa unlilar, yumshoq va qattiq tovushlarni muallif asarda maxsus belgilar (harakatlar) bilan qo‘llaydi yoki so‘z boshidagi cho‘ziqlikni ifodalash uchun ikki alif bilan ko‘rsatadi. Ba’zi holatlarda esa 2 xil talaffuz qilinuvchi so‘zlarga 2 xil ishorani alohida-alohida qo‘yadi: Azuqluq, eritmak so‘zlaridagi z va r harflarining ustiga ham kasra, ham damma ishoralarining ikkisini ham qo‘ygan. Bundan ko‘rinadiki, bu so‘zlar o‘sha davrda ikki xil talaffuz etilgan: aziqluq- azuqluq, eritmak-erutmak kabi. Muallif arabcha harf bilan ko‘rsatish mumkin bo‘lmagan turkiy so‘zlardagi talaffuzni ham “Devonu lug‘oti-t-turk”da izohlab, alohida ta’riflab bergan. “Devonu lug‘oti-t-turk”da eng avvalo otlar so‘ngra fe’llar izohlab berilgan. So‘zlarning tartibi esa ular tarkibidagi harflarning orta borishiga qarab (2 harfdan 7 harfgacha) amalga oshirilgan.

Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘oti-t-turk” devoniga o‘zi tomonidan tuzilgan dunyo xaritasi (dunyoning doira shaklida berilgan tasviri)ni ham ilova qilgan. Ushbu xaritada esa mamlakat, shahar, qishloq, tog‘, cho‘l, dovon, dengiz, ko‘l, daryo va h.k.larning nomlari yozilgan. Xaritaga yozilmay qolgan bir qancha nomlar asarning matnida izohlab berilgan. Bu xarita asosan, hozirgi Sharqiy yarim sharga to‘g‘ri keladi deb izohlanadi. Bundan tashqari, devonda XI asrdagi shahar va qishloqlar, dengiz va ko‘llar, shuningdek, turkiy qabilalar, urug‘lar haqida,

⁶ Абдурахмонов.Ф. Девону луғоти-т-турк ҳақида “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. 2006. 189 - б.

ularning ijtimoiy ahvoli, kelib chiqishi, nomlanishi, ichki urug‘ va toifalari ularning joylashuvi, urf-odatlar hamda til xususiyatlari haqida ham batafsil ma’lumotlar beriladi.

Asarda shevashunoslikka oid qiyosiy qoidalar, grammatik, morfologik, leksik, semantik alomatlar ham ko‘rsatilgan. Asar foydalanuvchilarga osonlik tug‘dirish uchun sodda va tushunarli yozilgan. Unda qadimgi turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar va orfografik qoidalar puxta tushuntirib berilgan. Lug‘atda turkiy so‘z tuzilishi, an‘analari, jumladan, so‘z tartibi, fe‘l shakllariga oid ma’lumotlar va fikrlar ham bayon etilgan. Muallifning ta’kidlashicha, kitob 2 bo‘limdan, muqaddima va xulosadan iborat. Har bir bo‘limda otlar(ism so‘zlar), fe‘llar qulaylik uchun alohida ajratib berilgan. Asarda ham adabiy tildagi, ham turkiy shevalarga oid so‘zlar keltirilgan bo‘lib, undagi adabiy til va sheva unsurlarining nisbati o‘rtacha adabiy tildagi 10-12 ta so‘zga, shevaga oid bir so‘z to‘g‘ri keladi, ya’ni mazkur asarda umumturkiy adabiy tilga ayriicha ahamiyat beriladi. Mana shu holat o‘sha davrda islom mintaqasida turkiy til qanchalik keng tarqalgani va mustahkam mavqega ega bo‘lganini tasdiqlovchi qat’iy dalildir. “Devonu lug‘oti-t-turk”ning yana bir ahamiyatli tomoni sifatida qarashimiz mumkinki, unda urug‘ va qabila tillariga oid lingvistik, etnografik ma’lumotlar ham ancha keng yoritib berilgan. Aytmoqchimizki, devonda har bir so‘zning o‘ziga xos(ko‘p ma’noli, shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli, tarixiy so‘zlar) ma’nolari chuqur tahlil qilinadi, ayrim so‘zlarning etimologiyasiga to‘xtalib fikr bildirib o‘tiladi.

“Devonu lug‘oti-t-turk” asaridan turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so‘zlar, 700 satrdan oshiq she’riy parchalar ham o‘rin olgan. She’riy parchalarning juda ko‘p qismi turkiy xalqlarning og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan to‘rtliklardan iborat⁷.

Shuningdek asarda fonemalar, (tovushlar) ning tahliliga ham mukammal yondashilgan bo‘lib: unli va undosh fonemalar, cho‘ziq va qisqa fonemalar, ularning urug‘ va qabila tilidagi talaffuzi hamda orfografiyasi, tildagi fonetik

⁷ Кошғарий.М. Девону луғоти-т-турк. Нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов.-Тошкент: ЎзФА, III том. 1961. 5-6

hodisalar va ularning qonuniyatlari misollar bilan keltirib batafsil izohlangan. Morfologiya sohasida esa soʻz turkumlarini davr anʼanasiga koʻra uch guruhga: feʼllar, ismlar, bogʻlovchilarga boʻlib, ularning yasalishi va qoʻshimchalar bilan turlanish yoʻllarini koʻrsatib oʻtadi.

“Devonu lugʻoti-t-turk” arablar va arab tilini biladigan Sharq xalqlari, shuningdek, Yevropa ilm ahlini turkiy til bilan tanishtirish maqsadida yaratilgandir. Shu tufayli ham asar juda katta ilmiy ahamiyatga egaligi bois dunyoning bir qancha tillariga, jumladan: turk, oʻzbek, uygʻur, ingliz, rus va boshqa koʻplab tillarga tarjima qilingan.

Asli kelib chiqishi falastinlik arablardan boʻlgan, Qozon universitetida taʼlim olgan, Qozon va Boku universitetlarida professorlik qilgan sharqshunos olimlardan biri P.K.Juze (1871-1942)1926-1928-yillarda “Devonu lugʻoti-t-turk”ga bagʻishlab ikkita maqola yozadi. Ushbu maqolalarida olim Koshgʻariyning “Devonu lugʻoti-t-turk” asariga juda yuksak baho beradi, xususan, tilshunoslik ilmi, uning tarixini, urugʻ va qabila tillarini oʻrganishda devonning ahamiyati katta ekanligini uqtirib oʻtadi. U shunday yozadi: “Mahmudning “Devonu lugʻoti-t-turk” asarida oʻsha vaqtda Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan Shimoliy-Sharqiy qabilalarning deyarli hammasi toʻplangan. Dadil aytish mumkinki, yaqindagina(XIX asr oxirlarida) Rossiyada va Sharqda oʻrganilgan turkiy tillar fonetikasi va etimologiyasining asosiy qonunlari XI asrdayoq Mahmud tomonidan aniqlangan va oʻrganilgan edi. Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chuqurki, hatto, bunday asar XIX asrda yozilganda ham unga shon-sharaf boʻlardir. Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻoti-t-turk”i singari asar fan olamida keyingi asrlarda ham yaratilgan emas. Uning asari bamisoli “Turkiy qomus”dir”⁸.

Oʻzbek olimlari orasida esa “Devonu lugʻoti-t-turk” asarini ilmiy asosda oʻrganishni Turkiston jadidchilik harakatining gʻoyaviy rahnamolaridan biri Abdurauf Fitrat boshlab beradi. U “Devonu lugʻoti-t-turk”ga oid tadqiqotlaridan birini “Eng eski turk adabiyoti namunalari” deb nomlaydi. Mazkur tadqiqot-

⁸ Кошғарий.М. Девону луғоти-т турк. Нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов.-Тошкент: ЎзФА. 1960. II том. 17-67 - 6

majmuasi 1927-yilda isloh qilingan yangi arab yozuvida chop etilgan. Fitrat ushbu tadqiqotda turkshunoslik ilmining asoschisi Mahmud Koshg'ariyning mashhur "Devonu lug'oti-t-turk" asarida qo'llanilgan adabiy she'riy parchalarni yig'ib, ularni adabiy tur va janrlariga ko'ra tasniflagan va izohlab bergan. "Bir-ikki so'z" deb nomlanuvchi so'z boshisida esa o'zining o'zbek tili va adabiyoti tarixi, turkiy tilshunoslik, o'zbek adabiyotshunosligi uchun muhim bo'lgan g'oyatda ahamiyatli fikrlarini ifodalangan. Ular jumlasiga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

a) M.Koshg'ariy, V.V.Radlov, A.N.Samaylovichlarning turkiy tillarning tasnifiga oid ilmiy qarashlarini mufassal tahlil etgan;

b) yangi o'zbek adabiy tilining asosiy manbalarini to'g'ri belgilashga harakat qilgan;

v) "Devonu lug'oti-t-turk"da qo'llanilgan adabiy she'riy parchalarni yig'ib, ularni adabiy tur va janrlariga ko'ra aniq tasniflagan;

g) "Devonu lug'oti-t-turk"ning ilmiy-tarixiy, ijtimoiy-madaniy ahamiyatiga to'g'ri yondashgan holda baho bergan.

Fitrat mazkur tadqiqotida dastlab eng mashhur turkshunoslar hisoblangan M Koshg'ariy, V.V.Radlov va A.N.Samoylovichlarning turkiy tillar bo'yicha tasniflariga o'zining shaxsiy munosabatini bildirib o'tadi. U mazkur tasniflarni chuqur tahlil etib bo'lgach, ular bo'yicha o'zining xulosasini quyidagicha ifodalaydi: "Har holda bu tasniflarning ko'pda asosiy narsalar bo'lmag'ani ma'lum. Bulardan boshqa birda tarixiy tasnif Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'at"ida bordir"⁹. Olimning mazkur fikridan quyidagicha mazmun va tushunchalarni anglashimiz mumkin:

1) rus turkshunoslarining bergan tasniflarida juda ko'plab kamchiliklar mavjud bo'lib, ularda turkiy tillar faqat bir tomonlama tasniflangan. Xususan, V.V.Radlovning ilmiy ishlarida turkiy tillar faqat hududiy-geografik nuqtai nazardan tasnif qilingan bo'lsa, A.N.Samoylovichning ilmiy asarlarida esa turkiy tillar bir xil lingvistik belgisiga asoslangan holda tasnif etilgan xolos. Bunday yo'l

⁹ Кошғарий.М Девону луғотит турк. Нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов.-Тошкент: ЎзФА. 1960. II том. 17-67 - б

tutish xato va chalkashliklarni, noaniqliklarni keltirib chiqarishi aniq. Shuning uchun ham ularning tasniflarini mukammal deya olmaymiz¹⁰.

2) Yuqorida keltirilgan tasniflardan farqli o'laroq ushbu tasniflardan bir necha asr ilgari, XI asrda yaratilgan tasnif ham mavjud bo'lib, ushbu tasnif qomusiy olim M.Koshg'ariyga tegishlidir. Devonni ko'zdan kechirish orqali ayonki, olim turkiy xalqlarning hududiy-geografik joylashuvi jihatdan, yashash tarzi va undan kelib chiqqan holda turkiy tillarning lingvistik xususiyatlarini ham alohida e'tiborga olib, turkiy tillarni ikkita alohida guruhga bo'ladi:

1. Turk xoqonligi. Yoki xoqoniy turkchasi tilari;
2. O'g'uz tillari¹¹.

Bizga ma'lumki, "Devonu lug'oti-t-turk" da mazkur guruhdagi tillarning fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari mufassal tahlil etilgan hamda shularga asoslanib ular alohida tasnif etilgan. Fitrat ushbu tarixiy tasnif anchayin sodda, aniq va qisman mukammallikka ega ekanligini alohida ta'kidlab, albatta, undan keng foydalanish kerakligini, kelgusida yaratilajak yangi tasniflarga asos sifatida mazkur devonda keltirilgan tasniflarning olinishi lozimligini aytadi. Asarga nisbatan fikr bildirar ekan unga tarixiy fonetika, morfologiya va leksikologiya uchun qimmatli materiallar beruvchi manba sifatida ham yuqori baho beradi. Haqiqatdan ham devonda yuqoridagi yo'nalishlarning barchasi bo'yicha ancha keng va to'liq ma'lumotlar mavjud. Fitrat "Devonu lug'oti-t-turk"da mingdan ortiq so'zning izohi berilganligini qayd etgan. Ayrim adabiyotlarda esa asardagi so'zlarning umumiy miqdori olti mingdan ziyodroq deb ko'rsatiladi. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da devonda sakkiz mingdan ortiq so'zning izohi berilganligi keltirilgan. Hozircha ushbu masalada aniq va bir to'xtamli fikrga kelinganicha yo'q. Fitratning asar haqida yaratgan tadqiqotida "Devonu lug'oti-t-turk"ning yozilish sanasi ham ko'rsatib o'tilgan. Ayni shu o'rinda mazkur asarning yozilish sanasi xususidagi ayrim qarashlarga ham to'xtalib o'tsak. Ba'zi bir o'quv adabiyotlarida devonning yozilish sanasi 1072-1083-yillar deb qayd etilgan bo'lsa,

¹⁰ Фитрат. Енг ески турк адабиёти намуналари. -Тошкент: Мумтоз сўз. 2008. 10-6

¹¹ Фитрат. Енг ески турк адабиёти намуналари. -Тошкент: Мумтоз сўз. 2008. 11-6

ayrim ilmiy manbalarda, bu sana 1072-yil deb ko'rsatilgan. Fitrat tadqiqotida "Devonu lug'oti-t-turk"ni hijriy 464-466-yillarda yozib tugatilganligini qayd etadi. Buni milodiy yil bo'yicha hisoblasak, 1072-1074-yillarga to'g'ri keladi. Bizningcha bu borada Fitratning fikri haqiqatga anchayin yaqin. Sababi bundayin keng hajmli va yuksak salohiyatga ega asarni bir yil ichida yozib tugallashni tasavvurga sig'dirish qiyin.

A.Fitrat mazkur asarni tadqiq etish jarayonida juda ko'p ilmiy va badiiy asarlarni o'qib-o'rganib chiqadi. Ular jumlasiga V.V.Radlov va A.N.Samoylovichlarning turkiy tilga oid qarashlarini va asarga oid ilmiy tadqiqotlarini, o'zbek adabiyotining durdonalari sanalmish "Qutadg'u bilig", "Hibat-ul-haqoyiq", "Muqaddimat-ul-adab" kabi badiiy va lug'at asarlarni aytishimiz mumkin. Olim aynan shu manbalar asosida "Devonu lug'oti-t-turk"dagi she'rlarni izohlab, vazn, qofiya, mavzu bo'yicha keng tahlil qilgan va keltirilgan izohlar orqali o'zining tasnifini yaratgan. Fitrat o'zbek xalqining, kengroq ma'noda aytganda, turkiy xalqlarning til tarixini, yozma manbalarini o'rganishda hamda ularni targ'ib etishda devonning alohida o'ringa ega ekanligini, ushbu ilmiy meros o'zining ilmiy ahamiyatini va dolzarbligini hanuzgacha yo'qotmaganligini ta'kidlaydi.

Koshg'ariyshunoslikka munosib hissa qo'shgan o'zbek tilshunoslaridan biri, shubhasiz, Solih Mutallibovdir. Tilshunos olim o'zining o'ttiz besh yillik tinimsiz izlanishlari, mehnatining samarasi natijasida "Devonu lug'oti-t-turk"ni o'zbek tiliga tarjima qiladi hamda asarni muhim izoh va tafsirlari bilan 1960-1963-yillarda uch jilddan iborat holatda chop ettiradi. E'tiborli jihati shundaki, ushbu nashr faqat tarjima bo'libgina qolmay, balki, turkcha tarjimaga nisbatan munosabat va baho; atamalar, shaxs nomlari, shahar va joy nomlariga nisbatan berilgan izoh va tafsirlardan ham iborat manbadir.

Solih Mutallibov nashrining muqaddima qismida M.Koshg'ariyning lingvistik qarashlari, turkiy qabilalar, ularning shakllanishi, tillari, shuningdek hozirgi turkiy xalqlar hamda ularning tiliga bo'lgan munosabati, tarjima transkripsiyasi to'g'risida keng ma'lumotlar berilgan. Mazkur nashrning oxirgi qismlarida esa

turkiy urug‘, qabila va shaharlar to‘g‘risida batafsil tushunchalar, ularning nomlari keltirilgan. Har bir jildda havolalar berilib, unda uchragan so‘z va iboralar A.Navoiy asarlarining tili hamda hozirgi o‘zbek tili bo‘yicha o‘zaro qiyoslanib, izohlangan. Asarning tarjimasiga berilgan izohlarning o‘zi alohida bir katta ilmiy ishdirki, uni o‘rganish juda ko‘p vaqt va chuqur izlanishlarga asoslangan bilimni talab qiladi.

Koshg‘ariy devonda o‘z davridagi dialektlarning leksik xususiyatlarini ham to‘liq ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Muallif so‘zlarni izohlab berar ekan, o‘rni bilan ularning har birini qaysi dialektga mansub ekanligi, dialektlardagi o‘ziga xos ma‘no xususiyatlari va boshqa muhim bo‘lgan leksik-semantik xususiyatlari haqida ham ma‘lumotlar beradi. Bu bilan esa aynan shu so‘zning dialektal xarakterini ham ochib beradi. Tilshunos olim ma‘lum bir dialektga mansub bo‘lgan so‘zlarni alohida ajratib ko‘rsatadi va ularni farqlash uchun misollar keltiradi.

Agarda lug‘atda keltirilgan turkiy so‘zga arab tilida teng keladigan so‘z bo‘lmasa, ya‘ni u turklarning tiriklik tarziga, dunyoqarashiga, madaniyatiga, etnografiyasigagina tegishli tushunchani anglatasa, bunday holatda muallif ushbu so‘zni kengroq shaklda bayon etadi. Yanada muhimi, turkcha so‘zning ma‘nosini aniq ochib berish uchun o‘sha so‘zning o‘zi qatnashgan turkiy jumlar, maqollar, xalq qo‘shiqlari, dostonlardan olingan to‘rtliklar yoki ushbu tushuncha bilan bog‘liq etnografik marosimlar, qarashlar bilan izohlab beradi¹². Shunga asoslanib, “Devonu lug‘atit turk”ni faqat tilshunoslikka oid uning qonuniyatlarini yorituvchi asargina deb emas; qadimgi turk folklori, etnografiyasi, tarixi, madaniyatshunosligi va shuning singari o‘nlab qadimiy fanlar uchun ham boy material beruvchi asar deb qarasa xato bo‘lmaydi.

1.2. “Devonu lug‘oti-t-turk” turkiycha leksemalar etimologiyasini aks ettirgan lug‘at sifatida

Etimologik lug‘at haqida fikr yuritishdan oldin eng avvalo so‘z va uning etimologik mazmuni haqida yetarlicha tushunchalarni keltirib o‘tishimiz joizdir.

¹² Кошғарий.М. Девону луғоти-т-турк”. Нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. -Тошкент: ЎзФА. 1960. II том. 17-67 -б

Etimologiya – tilshunoslik fanining muhim va murakkab sohasi. *Etimologiya* soʻzi asli yunoncha *etyman* va *logos* soʻzlaridan tarkib topgan; *etyman* soʻzi – “chin asl mohiyat” maʼnosini, *logos* soʻzi esa “taʼlim” maʼnosini anglatadi; shunga koʻra etimologiya sohasida soʻzlarning asl shakli va maʼnosini aniqlash boʻyicha ishlar olib boriladi. Oʻzbek tilshunosligida etimologiya ayrim soha sifatida shakllanmagan¹³.

Tilshunoslik boʻlimlaridan biri hisoblangan etimologiyaning asosiy vazifasi, qadimiy manbalarning hamda til lugʻat tarkibining shakllanish jarayonini va uning dastlabki holatini tiklashdan iboratdir. Har bir tilning leksikasida muayyan miqdorda soʻzlar borki, ularning shakli hamda maʼnosi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik shu til egalari uchun tushunarsiz boʻlib qolgan, sababi, soʻzning tarixan oʻzgarib borishi uning dastlabki maʼnosini xiralashtirib qoʻyadi, keyinchalik shakllangan bunday soʻzning strukturasi tildagi maxsus yasash qolipi asosida izohlab boʻlmaydi.

Etimologik tahlilning maqsadi: muayyan soʻzning qachon, qaysi tilda, qanday yasash qolipi asosida, qaysi til materiali bilan, qanday shakl va maʼnoda paydo boʻlganligini aniqlashdir. Etimologik tahlilning asosiy metodi qiyosiy-tarixiy metod boʻlib, ushbu metod fonetik qonuniyatlar, morfologik qoidalar, soʻzlardagi morfologik oʻzgarishlarga tayanib ish koʻradi. Bu kabi tadqiqotlarning natijalari til tizimi strukturasi turli jarayonlarni hamda soʻzlarning etimologik maʼnolarini aniqlashda va etimologik lugʻatlar tuzishda katta ahamiyat kasb etadi. Muayyan til uchun oʻzlashma hisoblangan soʻzlarning etimologiyasini aniqlash unchalik qiyin emas. Misol uchun, hozirgi oʻzbek tilidagi “daftar”, “piyola”, “qalam” kabi soʻzlarning etimologiyasini aniqlash uchun ularning yunon tiliga mansubligini anglagan holda, oʻsha tildagi (dastlabki) maʼnosini aniqlashning oʻzi kifoya qiladi. Biroq “juda qadimiy” maʼnosidagi “daqyanus (daqqiyunus)dan qolgan” iborasining etimologiyasini aniqlash uchun din tarixidan, Qurʼoni karimdan va Rim imperiyasining tarixidan ham xabardor boʻlish kerak.

¹³ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Тошкент: Университет, 2000. 3-6

Qo'llanilish jihatidan bugungi kunda so'z etimologiyasining 3 xil shakli borligi fanga ma'lum:

1. Ilmiy etimologiya – ilmiy etimologik tahlilda til tarixiga, shuningdek lahja va shevalarga murojaat qilish, aniq beriluvchi faktlarni turli yo'llar bilan qiyoslash orqali yuzaga keladi. Masalan, pichoq so'zining "bi" (tig') o'zagiga -chak qo'shimchasini qo'shish yoki "bich" kesib tashla feliga -ak qo'shimchasi qo'shish orqali, "kuy" so'zining esa qadimiy turkcha "ko'g" so'zining keyingi davrlarda shakllangan "ko'y", "kuy" kabi shakl va qisman ma'no o'zgarishlari orqali paydo bo'lganligi ilmiy etimologik tahlillar bilan aniq faktlar asosida o'rganilgan. Lisoniy birliklarni etimologik tahlil qilishda ular tarkibidagi tovushlarga xos tejamkorlik natijasida ro'y bergan o'zgarishlarga ham jiddiy e'tibor qaratiladi. Mas, hozirgi o'zbek tilida payt ma'nosini bildirish uchun qo'llanilayotgan, *tunovgi-tunovkuntunovin* so'zlari asli kelib chiqishida 3 tarkibiy qismdan iborat bo'lib, dastlab "*tun og'gan qun*" shaklida qo'llanilgan va davrlar mobaynida yuz bergan bir qancha shakl o'zgarishlaridan keyin hozirgi ko'rinishiga kelgan. Demak, "tunovgi", "tunovkun", "tunovin" kabi sinonim so'zlar, etimologik jihatdan hozirgda mavjud lug'atlardagidek o'tgan kun, burnog'i kun, kechadan oldingi kun ma'nolarini emas, kecha, ya'ni *tun og'gan kun (tun chappa bo'lgan kun)* ma'nosini ifodalagan. Mana shu holat uning ilk etimologik ma'nosini oydinlashtirib beradi.

2. Soxta etimologiya – soxta etimologiyada eskirgan yoki o'zlashma so'zning morfologik tuzilishi va boshqa xususiyatlarini noto'g'ri tushunish, buning natijasida yuzaga keladigan soxta izoh hisoblanadi. Masalan, "*meditsina*" so'zini "*madadi Sino*" tarzida talaffuziga asoslangan holda ajratib, Ibn Sinoning nomi bilan, yoki "*dorchin, dolchin*" so'zini "*haqiqiy dori*" birikmasiga bog'lab tahlil qilish "soxta etimologiya" sanaladi. Aslida esa *Meditsina- lot. "vrachlik mahorati davolash"* ma'nosini, *dolchin "doruyu-chin"* – *forscha. xitoy dorisi* ma'nosini bildiradi.

3. Xalq etimologiyasi – xalq etimologiyasida muayyan bir so'zning ma'nosini aniq faktlarga asoslanmagan holatda, faqat tovush tomonining tasodifiy

o'xshashligiga qarab, shuningdek, rivoyat va afsonalarga tayangan holda izohlashdan va talqin qilishdan iboratdir.

Etimologik talqin har qanday tilda asosan barcha so'zlarga emas, balki so'z boyligining ma'lum bir qismigagina beriladi. Ya'ni, asosan tildagi o'z qatlamga oid bo'lgan so'zlarga etimologik jihatdan yondashish va uning etimologik mazmun-mohiyatini aniqlash mumkin. Sheva va dialektlarga oid so'zlar kamdan-kam holatlarda etimologik talqinga ega bo'ladi. Buning sababi shundaki, ushbu so'zlarning asosida uning adabiy shakli yotadi va shevadagi o'zgarishlar ko'p jihatdan og'zaki nutqqa xos bo'ladi. Ma'na shuning uchun ham so'zlarning adabiy tildagi variantini etimologik jihatdan talqin qilishimiz ilmiy jihatdan o'rinliroq sanaladi.

So'zlardagi etimologik talqin odatda ikki jihatdan beriladi:

1. *Shakl (tovush)jihatidan etimologik tahlil*; Ushbu jihatdan tahlil qilishda so'zning etimologiyasiga shakliy jihatdan yondashamiz, ya'ni so'zdagi tovushlarning tarixan qanday holatda bo'lganligi va davrlar o'tishi jarayonida qanday o'zgarishlarga uchraganligiga ahamiyat beramiz. Shuni ham e'tiborga olishimiz kerakki, so'z etimologiyasiga shakliy jihatdan yondashganimizda so'zning asosi va qo'shimchalarida bo'layotgan tovush o'zgarishlariga ham e'tibor qaratishimiz zarur. Buning sababi shundaki, so'zlar etimologiyasida qo'shimchalarning ham, asosning ham ma'lum darajada boshqa tovushga o'zgarishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. So'zning tarixan shakllanishida, yasalishida xizmat qilgan qo'shimchalar bugungi kunda ma'lum bir o'zgarishlarga uchragan holda qo'llanilishi, yoki umuman o'z ahamiyatini yo'qotgan bo'lishi ham mumkin. Aynan mana shu jihatlarda so'zlarning shakliy tomonidan etimologik talqin qilinishi asosida o'rganiladi.

2. *Mazmuniy jihatidan etimologik tahlil*; So'zni mazmuniy jihatdan etimologik talqin qilishda tanlangan so'zning tarixan qanday mazmunni anglatganligi, o'zi paydo bo'lgan davrda nimani (ma'lum bir shaxs yoki predmet va h.k.larni) anglatganligi va ularga qaysi jihatdan asoslanib kelib chiqqanligi ya'ni, leksemaning eng dastlabki asosiy mazmunini topishga e'tibor qaratiladi.

Masalan “Devonu lug‘oti-t-turk”da keltirilgan, bugungi kunda ham o‘zbek tilida keng iste‘moldagi ko‘p ma’noli o‘q so‘zining bosh ma’nosi deb lug‘atlarda “yoyga qo‘yib otiladigan narsa” ma’nosi keltiriladi. Bu so‘zning “miltiq kabi issiq qurollardan otiladigan ma’dan” ma’nosi yuqoridagi ma’nodan o‘sib chiqqan: “yoyning o‘qi”, “miltiqning o‘qi”. O‘zbek tilida “ikki uchi doira shaklida silliq yo‘nilib, g‘ildiraklar o‘rnatishga xizmat qiladigan mustahkam g‘o‘la” ma’nosini anglatuvchi o‘q so‘zi ham mavjud. Bu so‘zning ma’nosini “yoyning o‘qi” ma’nosidan kelib o‘sib chiqqan deb bo‘lmaydi. Shuningdek o‘qlag‘i yasama so‘zining asosi bo‘lgan o‘q so‘zining asosi bo‘lgan o‘q so‘zining ma’nosi ham “yoyning o‘qi” ma’nosidan kelib chiqqan deb bo‘lmaydi. Shundan ma’lumki, bu ma’nolar uchun asos vazifasini o‘tagan boshqa bir dastlabki ma’no mavjud bo‘lgan. Qadimgi turkiy tilga va ayrim hozirgi turkiy tillarga mansub ma’lumotlar o‘q oti aslida “to‘g‘ri silliqlangan tayoq” (yog‘och) ma’nosini bildirganini ko‘rsatadi. Aynan mana shu ma’no o‘q otining etimologik ma’nosi bo‘lib yuqoridagi ma’nolar mana shu ma’nodan o‘sib chiqqan. Ushbu ma’no bugungi kungacha yetib kelmaganligi sababli o‘q so‘zining hozirgi o‘zbek tilidagi bosh ma’nosi sifatida uning dastlabki hosila ma’nolaridan biri ko‘rsatiladi. Demak bu misolda etimologik ma’no yuqoridagi ikki so‘zning yuzaga kelishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan¹⁴.

Yuqoridagi misollarimizdan kelib chiqqan holda etimologiya va uning mohiyatiga nisbatan so‘zning shakliy yoki mazmuniy jihatdan kelib chiqish tarixi deb qarashimiz mumkin. Bu masalada turkiy til yoki adabiyotlarda kamdan kam ma’lumotlar uchraydi. Deyarli bu yuzasidan XI asrgacha, ya’ni Mahmud Koshg‘ariy davrigacha biror bir maxsus asar yaratilganligi fanga ma’lum emas.

Koshg‘ariy “Devonu lug‘ati-t-turk”da ayrim so‘zlarning etimologiyasiga alohida to‘xtalib, ularning kelib chiqishi haqida ma’lumotlar beriladi. Shuning uchun ham ushbu asarga nisbatan faqat qomusiy asar deb emas, balki ilk etimologik lug‘at sifatida baho beramiz. Shuni e’tibordan chetda qoldirmasligimiz kerakki, ushbu davrda bu kabi ma’lumotlarni berish anchayin murakkab edi.

¹⁴ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати - Тошкент: Университет, 2000. 5- бет

Sababi Koshg'ariygacha bu masalada kerakli ma'lumot-axborotlar tayyor holatda emas edi. Shundan kelib chiqqan holda, ijodkor o'zining uzoq yillik sayohati davomida faqat turkiy so'zlarning qaysi urug' va qabilalarga mansubligi, nomlar va ularning arab yozuvidagi ifodasi, tovuch tuzilishinigina emas so'zlarning kelib chiqishi haqida ham yetarlicha ma'lumotlar to'plaganiga amin bo'lamiz.

“Devonu lug'ati-t-turk” tuzilishiga ko'ra ikki – muqaddima hamda lug'at bo'limlaridan iborat. Muqaddima qismida devonning yozilish sababi, uning tarkibiy tuzilishi; turkiy uruglar' va qabilalar qo'llaydigan yozuv; otlar, ularning yasalishi; fe'llar, ularning yasalishi hamda tuslanishi; so'zlarning tarkibi (morfem tuzilishi); grammatik qoidalar; shuningdek, turkiy xalqlarning ta'rifi va ularning o'rnamashgan o'rni; turkiy lahjalardagi so'zlar borasida keng qamrovli ma'lumotlar beriladi¹⁵.

Lug'at sakkiz bo'limdan iborat. Ular:

1. Hamzali so'zlar, ya'ni “alif” bilan boshlanadigan so'zlar bo'limi.
2. Solim, ya'ni “alif”, “vav”, “ya” harflari bo'lmagan so'zlar bo'limi.
3. Muzoaf, ya'ni undoshlari ikkilanadigan so'zlar bo'limi.
4. Misol, ya'ni tarkibida “alif”, “vav”, “ya” bo'lgan so'zlar bo'limi.
5. Zavatu-s-salasa (uch harfli so'zlar), ya'ni “alif”, “vav”, “ya” harflari qisqa unli sifatida o'qiladigan so'zlar bo'limi
6. Zavatu-l-arba'a (to'rt harfli so'zlar), ya'ni “alif”, “vav”, “ya” qisqa talaffuz qilinadigan so'zlar bo'limi.
7. G'unnalilar, ya'ni tarkibida burun (dumog') tovushlari kelgan so'zlar bo'limi.
8. Al-jam' bay-nas-sakinayi, ya'ni harakatsiz ikki undoshli so'zlar bo'limi¹⁶.

Devondagi har bir bob ism va fe'llardan iborat ikki qismga ajratilgan. Oldin otlar keyin esa fe'llar beriladi. So'zlarning berilishi ham arab lug'atchiligida ishlab chiqilgan tamoyillarga tayanadi: oldin ikki harflilar, so'ngra uch, to'rt, besh, olti harfli so'zlar ketma-ketlikda keladi.

¹⁵ Кошғарий.М. Девону луғоти-т-турк. Нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов.-Тошкент: ЎзФА, 1960. II. том. 36 -б.

¹⁶ Кошғарий.М Девону луғоти-т-турк. Нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов.- Тошкент: ЎзФА. 1960. II. том. 17-67 -б.

Lug‘atda o‘sha davrdagi turkiy tilning deyarli barcha sohalariga oid bo‘lgan so‘zlar jamlangan bo‘lib, ularning barchasi keng iste‘molda bo‘lgan ya‘ni, iste‘moldan chiqqan so‘zlar berilmagan. So‘zlarning izohlanishi esa quyidagicha: avval turkiy so‘z, so‘ngra esa uning arabcha tarjimasi keltirilgan. Izohlanganda esa uning fonetik variantlari, shevaga oid shakllari bo‘lsa, qanday shevalarda uchrashi ham misollar bilan qayd etiladi.

Masalan, muallif *im (belgi, yashirin so‘z)* so‘ziga izoh bera ekan, shunday yozadi: “*im – shoh askarlariga qo‘yilgan (tayinlangan) yashirin belgi,parol; bu belgi biror qush yoki qurol nomi va yoki, biror istalgan so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin; qachonki, askarlar to‘qnashganda uni aytib o‘zlarini tanitadilar; bu so‘z maqolda shunday keltiriladi: im bilsä er ölmäs - im bilsa er o‘lmas (kishi yashirin belgini bilsa nohaq o‘lmaydi)*”¹⁷.

Devonda ayrim so‘zlar bir dialektida ma‘lum bir shaklda bo‘lsa, ikkinchi dialektida uning o‘rnida boshqa so‘z qo‘llanilgan. Masalan boshqa turklar idish, kosa, piyolani ayaq desalar, o‘g‘uzlar uning o‘rnida janaq so‘zini qo‘llaganlar, turklar almila (ya‘ni olma) desalar, o‘g‘uzlar uning o‘rnida alma so‘zini qo‘llaganlar¹⁸.

“Devonu lug‘oti-t-turk”da keltirilgan ma‘lumotlar ajdodlarimizning turmush madaniyati, ayniqsa, X-XII asrlarda diyorumizda yashab o‘tgan ulug‘ allomalar yashagan davrni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mazkur asar bizni nafaqat Qoraxoniylar davri, bundan tashqari keyingi davrlardagi Movoraunnahr aholisining turmush tarzi bilan bog‘liq ijtimoiy iqtisodiy jarayonlar, axloqiy va diniy e‘tiqod, hamda xalqimizning tarixiga oid urf-odatlar haqida ham muhim tushunchalarga ega bo‘lishimizga katta imkon beradi. “Devonu lug‘oti-t-turk”, eng avvalo, turkiy urug‘ va qabilalar tillarining o‘ziga xos xususiyatlarini, urf-odatlarini, lingvistik xususiyatlarini, tarixini va lug‘at boyligini o‘rganishga bag‘ishlangan asar hisoblanadi. Ayni shu sababdan ham asarning mundarijasida bir

¹⁷ Кошғарий.М Девону луғоти-т-турк. Нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. .-Тошкент: ЎзФА, 1960. II. том. 17-67 -6

¹⁸ Кошғарий.М Девону луғоти-т-турк. Нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов.-Тошкент: ЎзФА. 1960. II. том.17-67 -6

qator lingvistik ma'lumotlarga keng o'rin berilgan. Ular sirasiga tillararo fonetik farqlar, so'z yasalishi, yozuv va boshqa shu kabi qaydlarni kiritishimiz mumkin. Asarning lug'at qismida esa juda ko'p jihatdan ahamiyatga molik bo'lgan va asarning qomusiylik darajasini ta'minlagan materiallarga keng miqyosida o'rin berilgan.

Shuni ham aytib o'tishimiz joizki, devonda keltirilgan so'zlar, adabiy parchalar yolg'iz XI asr tili va adabiyotidan namuna bo'lmay ularning katta bir qismi juda uzoq o'tmish davrlarining mahsulidir. Bu asarning hozirgi o'zbek tiliga munosabati masalasiga kelganda dastlab shuni aytish kerakki, o'zbek tili uni yaratgan o'zbek xalqi kabi juda uzoq muddat davomida turli holatlarni boshidan kechirib, bugungi holatiga yetib keldi. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asari yaratilgan davr tili va leksikasi hozirgi o'zbek tili leksikasiga asos bo'lgan. Devondagi so'zlarning bir qismi davr va til qonuniyatlariga muvofiq arxaik holga tushgan bo'lsa ham, asosiy qismi turli hollarda, butunlay o'zgarishsiz va yoki ba'zi o'zgarishlar bilan bizgacha yetib kelgan. Shuningdek ushbu so'zlarning ba'zilari turmushda qo'llanib kelinayotgan bir qancha yangi so'zlarning yasalishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Til taraqqiyoti va davr o'tishi munosabati bilan ba'zi so'zlarning formasi (shakli) o'zgargan, ba'zi so'zlarning esa ma'nosi o'zgargan, ba'zilari turmushdan chiqib qo'llanilmay, ularning o'rnini yangi shakl va ma'nodagi leksemalar egallagan. Mazkur devon Mahmud Koshg'ariyning umumjahon madaniyatiga hamda ilm-faniga qo'shgan qimmatli hamda beqiyos tuhfasini hisoblanadi.

"Devonu lug'oti-t-turk" tilshunoslikka doir o'lmas asar bo'lishi bilan bir vaqtda, turkiycha taomlarning nomlarini aniqlashda ham qimmatli manba sanaladi. Chunonchi, uyg'ur olimi Xo'ja Ahmad Yunus ta'kidlagandek: "X asrdan XII asrgacha bo'lgan oraliqdagi davr Qoraxoniylar sulolasining gullagan, iqtisodiy hamda yuksak madaniy hayotining ko'zgusi bo'lgan mazkur devon (turkiy xalqlarning) o'sha davrdagi va undan ilgarigi yeyish ichish madaniyatini tadqiq qilishga imkon beruvchi asosiy manba sanaladi". "Devonu lug'oti-t-turk"da oziq-ovqat va taomlarning turlari, taomlarni tayyorlash hamda ularni iste'mol qilish

uchun zarur bo'lgan oshxona qurollariga oid muhim ma'lumotlar ham o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, “Devonu lug‘oti-t-turk” turkiy tillarning fonetikasi – tovush tizimi, grammatikasi – asos va qo‘shimchalarning qo‘llanishi, shuningdek leksikasi – so‘z boyligiga oid noyob tadqiqotlari va xulosalari bilan ham qimmatli hisoblanadi.

Kiyim insoniyat tarixining ilk davrlarida tashqi ta‘sirlardan muhofaza qilish vositalaridan biri bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik uning vazifa doirasi kengayib, boshqa xususiyatlar ham kasb etadi. Kiyim insonni tashqi ta‘sirlardan muhofaza qilish bilan birga, uning ijtimoiy taraqqiyot faktorlari majmuyini o‘zida aks ettiruvchi, inson tanasini u yoki bu darajada berkitib, o‘rab, bezab turuvchi predmetlar yig‘indisidir. Kiyim ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat taraqqiy etgan sayin u ham taraqqiy etib, rivojlanib boradi. Tadqiqotchilar A. Levin-Dorsh va G. Kunovlarning yozishicha, ibtidoiy yovvoyi odam beliga bog‘lagan tasma yoki oyoq-qo‘liga taqilgan xalqalar ham keng ma‘noda kiyimga kiradi. Hatto badanni bo‘yash (tatiurovka), xom teridan qilingan yopinchiqlar, o‘simlik yaprog‘i, qush patlaridan tayyorlangan tutqichlar ham “kiyimning ibtidosi” hisoblanadi¹⁹.

Qadimgi Bo‘zqir turklari kiyim-kechaklarini qo‘y, sigir, tulki va turli ov hayvonlarining terisidan hamda qo‘y, echki, tuya kabi hayvonlarning junidan tayyorlashgan. Ayniqsa, kigiz yomg‘ir va qorda kiyiladigan ustki kiyimlar, shuningdek, bosh va oyoq kiyimlarini tikishda asosiy xomashyo vazifasini bajargan. Shu bilan bir qatorda, qadimgi turklar bo‘z to‘qishgan, kiyim uchun kendir yetishtirishgan. Turklar tomonidan ishlab chiqarilgan jun gazlamalar va kigizlar Xitoy va boshqa mamlakatlarga eksport qilingan.

Mahmud Koshg‘ariy ham “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida qadimgi turklar gilam, jun va ip gazlamalarni qo‘l dastgohlarida to‘qiganliklari, shoyi gazlamalarni esa Xitoydan olib kelganliklarini qayd qilib o‘tgan²⁰.

¹⁹ Аджи.М. Европа, тюркии, Великая степь. – М., 1998. – С. 51.

²⁰ Асомиддинова.М. Кийим-кечак номлари. -Тошкент: Фан, 1981. 8-б

Kiyimning paydo bo'lishi haqida so'z borar ekan, jamiyat hayotida kiyim turlarini yuzaga keltirgan turli ijtimoiy omillarni ham hisobga olishga to'g'ri keladi. Har qaysi xalqda, har bir millat yashagan joyning tabiiy sharoitlari, iqlimi, o'simlik va hayvonot olami bilan bog'liq holda, turli mamlakat xalqlarining yonma-yon yashashi, o'zaro moddiy va madaniy aloqalarning o'sishi natijasida kiyimlar, ularning bichilishi va hatto nomlari bir-biriga o'tishini ham ko'zda tutish lozim²¹.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarini sinchiklab tadqiq qilish asosida, Markaziy Osiyolik turkiy xalqlar madaniyatining X-XI asrlardagi ahvoli qanday saviyada bo'lganligini o'rganishimiz ham mumkin. Xususan, ushbu monumental asarda yuzlab kiyim-kechakka oid so'zlarning uchrashi (bilamizki kiyim kechak nomlari barchasi ot so'z turkumi sanaladi), o'sha davrda turkiy xalqlarning nechog'lik madaniy saviyaga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Turkiy qabila va urug'larning bir-biridan farq qiladigan lahjalardagi kiyim-kechaklar atamalari va ularning nomlari ham asarda alohida-alohida ko'rsatib berilgan. Devonda uchraydigan kiyim-kechakka oid so'zlar bugungi kunda nafaqat hozirgi turkiy tillarda saqlanib qolgan, balki forsiy, slavyan va boshqa xalqlar tillarida ham o'zlashgan so'z sifatida uchraydi. Misol uchun kaftan, bashmak, fartuk, utyug kabi so'zlarini keltirishimiz mumkin.

Muallifning asari o'z davri uchun benihoya katta voqea bo'lgani kabi, turkologiya fani sohasida ham birinchi namuna bo'ldi. Mahmud Koshg'ariy ushbu noyob asari bilan turkologiya fanining dastlabki ustodi bo'ldi, turkologiyaning maxsus fan sifatida rivojlanishiga ham aynan Mahmud Koshg'ariy asos soldi. Shuning uchun ham u allaqachonlar jahon miqyosida buyuk olim sifatida tanildi. Turkologlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, arxeologlar hanuz unga ulug' ustod sifatida chuqur hurmat bilan qarab yondashadilar, unga asoslanadilar. Afsuski, bu ulug' olimning muhim asari hanuzgacha jamoatchilik nazaridan chetda qolib ketgan va jiddiy o'rganilmagandir. Ana shu davr tilida ma'lum bir me'yorlarni yaratishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Shu ehtiyoj Mahmud Koshg'ariyni mazkur

²¹ Асомиддинова. М. Кийим-кечак номлари. -Тошкент: Фан, 1981. 9-б

devonni yozishga da'vat etdi. Bu asar turkologiyaning dastlabki namunasi sifatida o'sha davr madaniy hayotida va tilshunoslik tarixida alohida sahifa ochdi.

“Devonu lug‘oti-t-turk” birinchi navbatda, turkiy urug‘ va qabilalar tillarining xususiyatlarini, urf-odatlarini, lingvistik xususiyatlarini, tarixi va lug‘at boyligini o‘rganishga bag‘ishlangan asar. Shu sababli ham asar bugungi kunda ham o‘zining ilmiy ahamiyatini va tilshunoslikda tutgan o‘rnini saqlab kelmoqda. Unda keltirilgan so‘zlarning bir qismi bugungi kunda ayrim shakliy va mazmuniy o‘zgarishlar asosida qo‘llanilib kelinmoqda. Asarning etimologik manba ekanligini esa bugungi tilimizda qo‘llanilayotgan so‘zlarning ilk kelib chiqishini aynan mazkur lug‘atdan aniqlay olishimiz ham ko‘rsatib turibdi. Shuningdek qanchadan-qancha joy nomlarining tarixiy mazmun va shakli ham mazkur devonda aniq misollar bilan berilganligi ham asarning keng ko‘lamli etimologik manba ekanligini isbotlaydi.

Bob bo'yicha xulosa

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-t-urk" asari lingvistik ahamiyatga ega bo'lgan muhim manba hisoblanadi. Olimning ikkita asari bo'lib, uning faqat bittasi "Devonu lug'oti-t-turk" asarigina bizga yetib kelgan, xolos. Buyuk tilshunos olimning "Devonu lug'otit turk" asari Qoraxoniylar davrida yaratilgan va ushbu davr hayotini yoritib beruvchi o'ziga xos ko'zgu sanaladi. Shu sababli ham devon o'lmas obidalar sirasiga kiradi va o'zida davrning tili, adabiyoti, tibbiyoti, tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, hunarmandchilik va astronomiyasi haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Mazkur lug'at o'z davri uchun benihoya katta voqea bo'lgani kabi, turkologiya fani sohasida ham birinchi namuna bo'ldi.

Mahmud Koshg'ariy yashagan davrda tilda ma'lum me'yorlarni yaratishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Shu ehtiyoj M. Koshg'ariyni "Devonu lug'oti-t-turk"ni yozishga da'vat etadi. Bu asar turkologiyaning dastlabki namunasi sifatida o'sha davr madaniy hayotida va tilshunoslik tarixida alohida sahifa ochdi. Devonda keltirilgan so'zlarning berilishi, etimologiyasi, keng qamrovda ekanligi turkiy til tarixini o'rganishga keng yo'l ochib berdi. Shuning uchun ham bu asar hozirgi davrgacha tilshunoslik sohasidagi eng muhim manbalardan biri sifatida o'rganilib kelinmoqda.

"Devonu lug'oti-t-turk"da berilgan ma'lumotlar ajdodlarimizning turmush madaniyatini, diyorumizda yashab o'tgan ulug' allomalar yashagan davrni, o'sha davr leksikasini lug'at boyligini o'rganishda o'ziga xos muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu sababli mazkur asar bizni nafaqat Qoraxoniylar davri tili, ijtimoiy hayoti bilan, balki undan keyingi davrdagi Movarounnahr aholisining turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqisodiy, axloqiy, diniy e'tiqod hamda urf-odatlar haqida ham muhim tushunchaga ega bo'lishimiz uchun o'ziga xos o'rin tutadi. Shuningdek, "Devonu lug'otit turk" turkiy tillarning fonetikasi, grammatikasi va leksikasi, etimologiyasiga oid qimmatli ma'lumotlari va xulosalari bilan ham qimmatlidir.

"Devonu lug'oti-t-turk"ni turkiycha leksemalar etimologiyasi aks etgan lug'at sifatida tahlil qilish jarayonida, unda keltirilgan ko'plab so'zlarning bugungi

kunda ham iste'molda ekanligiga guvoh bo'ldik. Misol uchun hozirda yaqin qarindosh (onaning aka yoki ukasi) ma'nosida qo'llaniluvchi tog'a so'zi devon yozilgan davrda ham shunday ma'noni anglatgan. Ammo uning shakliy kelib chiqishi ikkita alohida so'z (tay – ona va ag'a – aka)dan kelib chiqqan. Shundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, ushbu asar yozilgan davr tili hozirgi adabiy tilimizning rivojlanish bosqichiga o'tishi hisoblanadi. Mana shu davrni o'rganishimizda esa biz faqat ushbu devonga asoslanamiz. Buning sababi shundaki, asar yaratilgunga qadar turkiy tilda bu kabi asar umuman mavjud emas edi. "Devonu lug'oti-t-turk" orqali esa o'sha davrda qo'llanilgan va bugungi kunda qo'llanilayotgan so'zlarni bimalol bir biriga solishtirib, shakliy yoki mazmuniy o'zgarishlarini aniqlashimiz mumkin.

II BOB. “DEVONU LUG‘OTI-T-TURK”DA OT SO‘Z TURKUMIGA OID TURKIYCHA LEKSEMALAR ETIMOLOGIYASI TAVSIFI

2.1. “Devonu lug‘oti-t-turk”da ot so‘z turkumiga oid tub leksemalar etimologiyasi

“Devonu lug‘otit turk”da keltirilgan so‘zlarning tarkibiga nazar tashlasak, asosan, tub otlar ko‘proq ikki va uch harfli so‘zlardan tashkil topgan. *Qilich, oq* kabi otlar tub otlar sirasiga kiradi. Bu xil otlar boshqa so‘zlardan kelib chiqmagan. “Devon”dan tub otlarga misollar keltirib o‘tamiz:

Et – go‘sh ;

ot – o‘t, o‘simlik;

oq – to‘sin yoki xari;

o‘z – yog‘; o‘zluk mo‘n – yog‘lik sho‘rva;

as – yirtqich hayvonlarga tekkan parcha go‘sh;

Quyida tub otlar va ularning etimologiyasiga to‘xtalib o‘tamiz.

Bit (бум) – Odam yoki hayvon tanasida uning qonini so‘rib yashaydigan parazit hasharot”(I, 310) Qizchanning boshida bit paydo bo‘libdi. Koshg‘ariy davrida ham hozirgi tilimizdagi kabi ma‘noni anglatgan bu ot **bi:t(бу:m)** tarzida talaffuz qilingan. keyinroq **i(u:)** unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan бит = бит²². Hozirgi tilimizda mazmunan o‘zgarmagan bu so‘z keyingi o‘zgargan bit(бит) shaklida qo‘llaniladi. Shuningdek bu so‘z omonimlik xususiyatiga ham ega bo‘lib, bugungi tilimizda fe‘l manosini ham beradi. Mas, ishi bitmoq, kitobni o‘qib bitirmoq kabi jumlar tarkibida qo‘llaniladi

Echku (эчку) – quvur shoxli, juft tuyoqli, kavsh qaytaruvchi va sut emizuvchi hayvon”(I. 149). Tuyani shamol uchirsa echkini osmonda ko‘r (Maqol). Qadimgi turkiy tilda ham mana shunday ma‘noni anglatgan holda qo‘llangan bu so‘z asli **echku(эчку)** tarzida talaffuz qilingan; keyinchalik davr o‘tishi bilan bu so‘z oxiridagi **u(y)** unlisi **i(u)** unlisiga almashgan va hozirgi davrgacha ushbu tovush o‘zgarishiga uchragan ko‘rinishida saqlanib qolgan.

²² Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 54-бет

Dabur (дабур) – kuchli, yemiruvchi bo‘ron. Okean atrofidagi mamlakatlarda tez-tez dovul bo‘lib turadi. Bu ot asli qadimgi turkiy tilda “g‘arbdan sharqqa esgan shamol” , “kuchli, yemiruvchi shamol” ma’nolarini anglatuvchi **dabur (дабур)** so‘zining ma’no taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan. Keyinchalik so‘z oxiridagi **r(p)** undoshi **l(l)** undoshiga, **b(b)** undoshi **v(v)** undoshiga **a(a)** unlisi **o(o)** unlisiga almashgan: *dabur = dabul = davul = dovul (дабур = дабул = давул = довул)*²³. Hozirgi tilimizda ham shaklan o‘zgargan dovul shaklida qo‘llaniladi va kuchli shamol, bo‘ron ma’nolarini bildiradi.

Dang (донг) – ovoza, dovruq(III. 369). Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas(maqol)²⁴. Bu ot qadimgi turkiy tildagi kuchli tovushni ifodalovchi **dang(данг)** so‘zining ma’no taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan: *Kuchli tovush= ovoza= dovruq*. O‘zbek tilida a unlisi o unlisiga almashgan: *dang = dong (данг= донг)*. Bugungi kunda ham ushbu ot keng iste’molda bo‘lib, ayni lug‘atda ko‘rsatilgan mazmuni ifodalash uchun hizmat qilib kelmoqda.

Toli – (толы) yumaloq muz holatidagi yog‘in. Uning yuziga do‘l aralash yomg‘ir yog‘ib berdi.²⁵ Ushbu ot qadimgi turkiy tilda ham bugungi kundagi kabi ma’noni anglatgan bo‘lib aslida toil (**толы**) tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik so‘z boshlanishidagi **t(m)** undoshi **d(d)** undoshiga almashgan; o‘zbek tilida so‘z oxiridagi **i(y)** unlisi talaffuz qilinmay qo‘ygan: *tol = doli = dol (толы=долы=дол)*. Ushbu ot hozirgi tilimizda ham aynan shu mazmuni ifodalaydi va do‘l shaklida qo‘llaniluvhchi tub leksema sanaladi.

Iz (уз) – biror narsadan qolgan nishona (botiq joy, kir va h. k lar). Bu yerdan yuk mashinasi o‘tganligi uning izidan ko‘rinib turibdi. Qadimgi turkiy tilda ham xuddi shunday ma’noni ifodalash uchun ishlatilgan bu ot dastlab **i:z(ы:з)** deb cho‘ziq talaffuz qilingan, o‘sha davrlardayoq **ы:** unlisining avval cho‘ziqlik, keyin

²³ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 93-бет

²⁴ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 96-бет

²⁵ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 155-бет

qattqlik belgisi yo‘qolgan. $i:z = iz = iz$ ($bi:3 = bi3 = u3$)²⁶. Hozirgi tilimizda ham aynan **iz** shaklida yuqorida keltirilgan ma’nomlarni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Ish(ɨu) – tutun, dud (I. 73). Xazon yoqqan edim, hovli tutunning isiga to‘ldi. Bu ot qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bo‘lib, **ish(ɨu)** tarzida talaffuz qilingan; o‘sha davrlardayoq **sh(u)** undoshi **s(c)** undoshiga almashgan, o‘zbek tilida **i** (ɨ) unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: $ish = i:s = is$ ($ɨu = ɨc = uc$). Ushbu ot ham hozirgi adabiy tilimizda **is** shaklida keng qo‘llaniluvchi tub so‘z sanaladi.

Yag‘i (ɨaɨ) – qarshi kishi, dushman. Yovni ayagan yara yer, kaltagini sara yer (Maqol).²⁷ Qadimgi turkiy tilda ham yuqorida keltirilgan ma’noni anglatgan bu leksema asli **yag‘i (ɨaɨ)** tarzida talaffuz qilingan; keyinchalik **i** (**ɨ**) unlisi talaffuz qilinmay qo‘ygan, **g‘(ɨ)** undoshi **v(ɨ)** undoshiga **a** unlisi **o** unlisiga almashgan: $yag‘i = yag‘ = yav = yov$ ($ɨaɨ = ɨaɨ = ɨav = ɨov$). Bugungi kunda ham ayni shu mazmunni beruvchi ushbu so‘z so‘zlashuv, rasmiy, publitsistik va ilmiy uslublarda deyarli qo‘llanilmaydi. Davr manzarasini to‘g‘ri ko‘rsatib berish uchun ushbu so‘zning badiiy asrlarda keng qo‘llanilishini kuzatishimiz mumkin.

Ya:z (ɨa:3) – **yo:z**, bahor bilan kuz oralig‘idagi fasl. |Yozda yopinchi g‘ingni qo‘yma qishda o‘zing bilasan (Maqol)²⁸. Qadimgi turkiy tilda asli “yilning issiq yarmi” ma’nosini (asosan “bahor”) ma’nosini anglatgan bu so‘z o‘zbek tilida yuqorida ta’riflangan ma’nosini anglatadi; ushbu ot aslida **ya:z (ɨa:3)** tarzida talaffuz qilingan, keyinroq **a:** unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan; o‘zbek tilida **a** unlisi **o** unlisiga almashgan: $ya:z = yaz = yoz$ ($ɨa:3 = ɨa3 = ɨo3$). Bu ot aslida **yaz**– “yoy” (**ɨaz** – “**ɨoɨ**”) fe’lining “**kurtak (barg)chiqar**” ma’nosidan o‘sib chiqqan bo‘lsa kerak Hozirgi tilimizda ushbu so‘z ot so‘z turkumi sifatida iyun, iyul, avgust oylarini o‘z ichiga oluvchi yilning bir faslini anglatadi.

Ya:sh (ɨa:u) – qayg‘u yoki sevinch ta’sirida ko‘z bezlaridan ajralib chiqadigan suyuqlik. Qizning o‘ng yanog‘iga bir tomchi issiq yosh to‘kildi. Ushbu ot qadimgi turkiy tilda ham xuddi shunday ma’noni anglatgan bo‘lib ilk

²⁶ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 158-бет

²⁷ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 160-бет

²⁸ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 161-бет

qo‘llanilgan davrida *ya:sh* (*ÿa:u*) tarzida talaffuz qilingan, keyinroq a: unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan. O‘zbek tilida a unlisi o unlisiga almashgan. *ya:sh* = *yash* = *yosh* (*ÿa:u* = *ÿau* = *ÿow*)²⁹. Bu so‘z aslida “*nam*” ma’nosini anglatgan (*kuz yashi* (*күз ÿашы*) ko‘zning nami). Keyinchalik ma’no yaxlitlashishi natijasida *yash*(*ÿau*) – ko‘zdan ajralib chiqadigan suyuqlik ma’nosini anglatuvchi so‘zga aylangan va ayni paytda hozirgi o‘zbek tilida ham aynan shu mazmunda qo‘llaniluvchi leksema sanaladi.

Lag‘un (*лагун*) – quyuq ovqat solinadigan kata yassi idish. Anvar o‘rtaga dasturxon yozib ikki lagan manti chiqarib qo‘ydi³⁰. Qadimgi turkiy tilda “yog‘ochni o‘yib yasalgan idish” ma’nosini anglatgan *lag‘un*(*лагун*)so‘zi mavjud bo‘lib, hozirgi o‘zbek tiliga ma’nosi o‘zgarib yetib kelgan; tovush jihatidan esa dastlab *g*(*g*)undoshi *g*(*z*)undoshiga almashgan, shundan keyin ikkinchi bo‘g‘indagi *u*(*y*)unlisi birinchi bo‘g‘indagi *a* unlisi ta’sirida *a* unlisiga almashgan: *lag‘un* = *lagun* = *lagan* (*лагун*= *лагун*=*лаган*). Hozirgi kunda mazkur ot quyuq taomlarni suzib iste’mol qilish uchun mo‘ljallangan yumaloq idish ma’nosida qo‘llaniladi.

Ac-as – karkas qushi, burgut.

Keldi menga tat,

Aydim emdi yat,

Qushqa bolub at,

Seni tilar as bo‘ri.

“Menga bir tot keldi; unga men: yot, qushlarga yem bo‘l, qushlar, qurtlar seni kutayotirlar, (deb uni o‘ldirdim)”. (Mening oldimgabir uyg‘ur kofiri keldi. Seni yirtqichlar, bo‘rilar parchalasin, qushlarga yem bo‘lib, shunday yot dedim)³¹.

Sibak (*сибак*) – beshikka belanadigan chaqaloqning siydigini tuvakka yo‘naltiruvchi naysimon asbob”. Karima beshik asboblarini qovuzloqdan to sumakkacha bir-bir ko‘zdan kechirib chiqdi. Devon yaratilgan davrda ham shunday ma’noni bildirgan mazkur ot asli) tarzida talaffuz qilingan; keyinchalik *b*(*o*) undoshi ta’siri bilan *i*(*u*) unlisi *u*(*y*)unlisiga almashgan. Shundan keyin *b*(*o*)

²⁹ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 175-бет

³⁰ Раҳматуллаев Ш Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 178-бет

³¹ Кошғарий.Маҳмуд .Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. -Тошкент: ЎзФА нашриёти. II. 1960. 286- б..

undoshi *m(m)* undoshiga almashgan: *sibak* = *subak* = *sumak* (*субак* = *субак* = *сумак*). Bu ot asli “*ichi kovak narsa*”³² ma’nosini anglatgan, va xuddi shu ko‘rinishdagi premetlarning barchasiga nisbatan qo‘llanilgan. Hozirgi qo‘llanilayotgan sumak ma’nosi esa so‘z ma’nosidagi torayish, xoslanish natijasida yuzaga kelgan va keying hosila shaklida tilimizda qolgan.

Tin (mun) – nafas (oz ishlatiladi). Bo‘g‘ziga tini tiqilib ishora qildi³³. Qadimgi turkiy tilda ham shu ma’noni ifodalash maqsadida qo‘llanilgan bu ot asli *tin (мын) deb* talaffuz qilingan, keyingi o‘rinlarda *i: (ы:)* unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan va hozirgi *tin* holatida qo‘llanila boshlangan.

Ты:ш-тиш “chaynash uchun xizmat qiladigan suyaksimon a‘zo”. Juvon yelkasi osha Siddiqjonga qarab, oppoq marjondek tizilgan tishlarini yarqiratib iljaydi³⁴. Bu ot qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan va *tish (мы:ш)* tarzida talaffuz qilingan, o‘sha davrlardayoq *i: (ы:)* unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan. O‘zbek tilida esa qattqlik belgisi yo‘qolgan. *ti:sh* = *tish* = *tish (мы:ш= мыш= муш)*.

Ta:g‘a (ma:za) – onaning aka-ukasi(uning bolalariga nisbatan). Tog‘asining holidan behabar Rohat so‘zida davom etdi³⁵. Turkiy tilda xuddi ham shunday ma’noni anglatgan bu ot asli *ona* ma’nosini anglatgan *tay (май)* oti bilan *aka* ma’nosini anglatgan *ag‘a(aza)* otlarining birlashuvi natijasida yuzaga kelgan. Bunda avval *y(й)* undoshi talaffuz qilinmay qo‘ygan. Buning hisobiga birinchi bo‘g‘indagi *a* unlisi cho‘ziqlik kashf etgan, keyinchalik yonma-yon kelgan *a:a* unlilari bir cho‘ziq unliga birlashgan, so‘ngra bu unlining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan. O‘zbek tilida birinchi bo‘g‘in tarkibidagi *a* unlisi *o* unlisi bilan almashgan: *tay* + *ag‘a* = *tayag‘a* = *ta:ag‘a* = *ta:g‘a* = *tag‘a* = *tog‘a* (*май+ аза= майаза= та:аза= та:за= таза= тоза*).

³² Кошғарий.Маҳмуд. Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. -Тошкент: ЎзФА нашриёти. II. 1960. 369- б..

³³ Кошғарий.Маҳмуд. Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. -Тошкент: ЎзФА нашриёти. III. 1960. 138- б

³⁴ Кошғарий.Маҳмуд. Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. -Тошкент: ЎзФА нашриёти. II 1960. 326-б

³⁵ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 371-бет

Tobiq (тобық) – koptok. Zarb bilan tepilgan to‘pni darvozabon qaytara olmadi. Qadimgi turkiy tilda shunday ma’no Mahmud Koshg‘ariyning ta’kidlashicha, **topiq(топық)** so‘zi bilan anglatilgan, devonda **top(mon)** so‘zi **topiq(топық)** so‘zining qisqargan shakliga teng deyilgan. Aslida **top(mon)** so‘zi qadimgi turkiy tilda mustaqil ishlatilgan va “*dumaloq narsa*” ma’nosini anglatgan; **topiq(топық)** so‘zi esa “*kichik to‘p*” ma’nosini bildirib, top so‘zidan kichraytirish ma’nosini ifodalovchi **-iq (-ық)** qo‘shimchasi bilan yasalgan deb izohlashimiz to‘g‘riroq. Devonning boshqa yerida bu so‘z **тобық** shaklida keltirilib, “*chovgon bilan uriladigan koptok*” deb izohlangan³⁶. Ko‘rinadiki, bu so‘z asli **top(mon)** otidan kichraytirish ma’nosini ifodalovchi **-iq (-ық)** qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan, keyinchalik **p(n)** undoshi **b(б)** undoshiga almashgan. Hozirgi kunda mazmunini o‘zgartirmagan ushbu so‘z, ilk kelib chiqish shaklida biroz o‘zgarishga uchragan holatda ya’ni, **o** unlisining **o‘** unlisiga o‘tgan holatida, **to‘p** shaklida qo‘llaniladi³⁷.

Qatun (қатун) – ayol, erga tekkan ayol. Najmiddinboyning bosh xotinidan Nurining eri Fazliddin tug‘ilgan. Bu ot qadimgi turkiy tilda **qatun, xatun (қатун, хатун)** tarzida talaffuz qilingan³⁸. Devonda esa faqat **qatun (қатун)** shakli berilganligidan kelib chiqib ushbu shaklni so‘zning asosiy shakli deb belgilashimiz mumkin. *L.Z.Budagov* bu so‘zning **qatun (қатун)** shaklini qirg‘izcha deb belgilaydi, va xatun so‘ziga tengligini ko‘rsatadi, lekin izohlamaydi; bu so‘zning xatun shaklini tatarcha-qozoqcha deb belgilab, bu yerda qatun shaklini qirg‘izcha-turkcha deb belgilaydi, oltoy tilida қаттын shaklida ishlatilishini, ko‘plikda қадыттар shaklini olishini ta’kidlaydi. Qirg‘iz tili lug‘atida bu so‘z **qatin (қатын)** tarzida, turk tili lug‘atida esa **xatun (хатун)** tarzida berilgan Yuqoridagi berilgan izohlar asosida bu so‘zning tovush jihatidan o‘zgarishini quyidagicha ko‘rsatish mumkin: **qatun = xatun = xotun = xotin (қатун= хатун= хотун)**. Yuqoridagi manbalarda ta’kidlanishicha, bu so‘z dastlab “*yuqori martabali kishining umr yo‘ldoshi*” ma’nosini anglatgan; ma’no taraqqiyoti natijasida umuman “*biror erkak*

³⁶ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 352-бет

³⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 371-бет

³⁸ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 402-бет

kishining umr yo'ldoshi", "ayol", "erga tekkan ayol" kabi ma'nolarni anglata boshlagan.

Хоқон (хоқон) – yirik davlatning mutloq hukmdori, ulug' xon, shahanshoh. Ulug' xoqon, bu hokisor qulingizning bir tortig'i bor. Qadimgi turkiy tilga oid manbalarda, xususan, "Devonu lug'otit-t-turk" tarkibida ham xuddi shunday ma'noni ifodalagan bo'lib, aslida **qag'an(қазан)** tarzida talaffuz qilingan: keyinroq **xaqan (хақан)** tarzida talaffuz qilina boshlangan. Boshqa manbalarda **qag'an, xaqan (қазан, хақан)** shakllari qayd etilgan bo'lsa, devonda faqat **xaqan(хақан)** shakli uchraydi. L. Z. Budatov bu so'z asli mo'g'ulcha ekanini aytadi. Bu lug'atda **qan/xan(қан/ хан)** so'zi **qaan(қаан)** so'zining qisqarishi bilan yuzaga kelgan deyiladi. Mahmud Koshg'ariy **xan(хан)** so'ziga bergan izohida: "Afrosiyobning bolalari ham xon deb yuritiladi. Afrosiyob xoqondir. Bu nom bilan atalish voqeasi haqidagi uzun hikoya bor", – deydi-yu afsuski, hikoyani keltirib o'tmaydi³⁹. Devonning 405- betidagi qag'an qan (қаған қан) misoli asosida quyidagicha fikr yurtitishimiz mumkin: Dastlab **qag'an qan(қазан қан)** birikmasidagi **qag'an(қазан)** so'zining **g'an(ған)** qismi talaffuz qilinmay, uning o'rniga **-qa (-қа)** qismidagi **a** unlisi cho'ziq talaffuz qilingan va қан qismiga birlashtirilgan; shundan keyin leksema boshlanishidagi қ undoshi x undoshiga almashgan, so'ngra **a**: unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan: o'zbek tilida **a** unlilari o unlilariga almashgan. **qag'an qan = qa:qan = xaqan = xoqon (қазан қан=қа:қан= хақан= хоқон)**. Davr nuqtayi nazaridan ushbu so'zning o'z mazmuni saqlanib qolganiga qaramay kam ishlatiluvchi so'zlar qatoriga kiradi. Buning sababi albatta davrlar o'tishi bilan davlat boshqaruvida yuz bergan o'zgarishlar natijasida ba'zi so'zlarning eskirgan so'zlar qatoriga kirishi, deb yondashsak to'g'ri xulosa qilgan bo'lamiz. Hozirgi tilimizda bu so'zni badiiy yoki tarixiy asarlardagina qo'llanilish holatlarini kuzatamiz. Har ikki turdagi asarlarda ham ushbu so'zlar aynan o'zi qo'llanilgan davr manzarasini yoritib berish uchun xizmat qiladi.

Chavaq (чабақ) – mayda baliq. Baliqchilar to'rga ilingan chovoqlarni suvga qaytarib tashlaydilar. Qadimgi turkiy tilda shunday ma'noni anglatish uchun

³⁹ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 404-бет

qo‘llanilgan bu ot o‘sha davrda *chabaq*(*чабақ*) deb talaffuz qilingan.⁴⁰ Bu so‘z devonda kishiga nisbatan *chabaq er* (*чабақ ер*) birikmasida ham ishlatilib, “kichik jussali” ma’nosini anglatgan. O‘zbek tilida bu so‘z tarkibidagi *b*(*б*) undoshi *v* (*в*) undoshiga almashgan, *a* unlilari *v*(*в*), *q*(*қ*) undoshlari ta’siri bilan *o* unlilariga almashgan: *chabaq* = *chavaq* = *chovoq* (*чабақ* = *чавақ* = *човоқ*). O‘zbek tilining imlo lug‘atiga bu so‘z negadir kiritilmagan, lekin devonda aniq misollar orqali berilganligini inobatga olib bu so‘zni tahlilda berib o‘tdik.

Og‘ut (*ўғым*) – bo‘za tayyorlashda ishlatiladigan achitqining ismi. Bu ko‘p dorilardan iboratdirki, unlari undirilgan arpa unlari bilan aralashtiriladi. Keyin qorishtirilib, g‘o‘laklarga o‘xshatib kesiladi, so‘ng quritiladi. Keyin bug‘doy va arpani qaynatiladi. O‘sha xamir o‘g‘itni (g‘o‘lakni) yanchib, har bir bug‘doyga bir g‘o‘lakdan sepiladi, so‘mgra qaynatilgan bug‘doyni toza bir narsaga o‘rab, uch kungacha dimlab qo‘yiladi. Shundan keyin xumga solinadi va yetilguncha o‘n kun qo‘yiladi. So‘ng ustiga suv quyib suziladi. Bu bug‘doy sharobi (bo‘zadir)⁴¹. Devondan olingan ma’lumotlarga tayanib hozirgi kundagi o‘g‘it so‘zining etimologik mazmunini yuqorida keltirilgan holatda bo‘lgan deb tahmin qilishimiz mumkin. Ma’no kengayishi natijasida dalaga, o‘simliklarga ularning yaxshi parvarishlash uchun beriladigan alohida moddalar bugungi kunda o‘g‘it nomi bilan ataladi.

A:l (*а:л*) – *hiyla, frib, tadbir*. Maqolda bu so‘z shunday qo‘llangan: *а:лин арслан тутар кучин уйуқ тутилмас* – hiyla bilan arslon tutilar, kuch bilan uyuq tutilmas. Kuch bilan polizlarda o‘tqazib qo‘yilgan qo‘g‘irchoq qo‘riqchini ham tutib bo‘lmaydi. Bu maqol kuch bilan ishini bitira olmaganlarga alohida tadbir qo‘llash kerak degan ma’noda qo‘llaniladi⁴². Mazkur keltirilgan so‘z bugungi tilimizda qo‘llanilmasligi bizga ma’lum. Ammo buning sababi bizga noma’lum. Balki davrlar o‘tishi va til taraqqiyoti natijasida yangi so‘zlarning tilimizga kirib kelishi natijasida so‘z ma’nosining torayishi yoki yo‘qolishi natijasida ushbu so‘z

⁴⁰ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 432-бет

⁴¹ Кошғарий.Маҳмуд. Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. -Тошкент: ЎзФА нашриёти. III. 1960. 42-б.

⁴² Кошғарий.Маҳмуд. Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. -Тошкент: ЎзФА нашриёти.III. 1960. 55-б

o‘zining ahamiyatini yo‘qotgan bo‘lishi mumkin. Aynan mana shu mazmuni ifodalash uchun hozirgi tilimizda *hiyla*, *nayrang*, kabi birliklardan keng foydalanamiz.

Chubak (*чубак*) – o‘g‘il bolaning tanosil a‘zosi. Kestirganda ba‘zi bolalarning chuki biroz yallig‘lanadi. Bu ot aslida cho‘k tarzida talaffuz qilingan bo‘lib keyinchalik o‘ unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: *cho‘k=chuk*.⁴³. Koshg‘ariyning devonida shunday ma‘no *cho‘bak*(*чўбак*) so‘zi bilan ko‘rsatilgan. K.K. Yudaxin esa o‘z lug‘atida bu ma‘noni anglatuvchi so‘zni *cho‘ko*(*чўкў*) shaklida keltirgan. L.Z. Budagov esa qozoq tilida bunday ma‘no *chug‘ay*(*чугай*) so‘zi bilan anglatilishini ta‘kidlagan. Qozoq tilining *chug‘ay*(*чугай*) so‘zi *chuk*(*чук*) so‘ziga kichraytirish erkalash ma‘nosini ifodalovchi *-ay* (*-ай*) qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan; qirg‘iz tilidagi *cho‘k* (*чукы*) so‘zi oxiridagi *o*(*у*) qo‘shimchasi ham kichraytirish- erkalash ma‘nosini ifodalasa kerak. Demak, bu tillardagi so‘zlarning asosi ham , xuddi o‘zbek tilidagi kabi *cho‘k*(*чўк*) so‘ziga tengdir. Bu tillardagi *cho‘k*(*чўк*)so‘zi qadimgi turkiy tildagi *cho‘bak* (*чўбак*)so‘zining tovush jihatidan o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan deb tahmin qilishimiz mumkin: *b* (*б*) undoshi *v* (*в*)undoshiga, shuning ta‘siri bilan ikkinchi esa bo‘g‘indagi *a* qisqa unlisi unlisi cho‘ziq *o*‘ unlisiga, keyinchalik *o‘vo*‘ tovushlari bir cho‘ziq *o*‘ unlisiga almashgan, davrlar o‘tishi bilan oxirgi bu unlining ham cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan: *chubak* = *chuvak* = *chubuk* = *chu:k* = *chuk*(*чубак*=*чувак*=*чубук*=*чу:k*=*чук*).

Ta:g (*ма:э*) – yer sathidan tepalikka ancha baland ko‘tariladigan qism. Uzoqdan ko‘rinib turgan otning o‘rkachiga to‘lin oy minib oldi. Qadimgi turkiy tilda ham shu ma‘noni anglatgan ushbu ot asli *ta:g* (*ма:э*) tarzida talaffuz qilingan. O‘sha davrlarda *a*: unlisi o‘zining cho‘ziqlik belgisini yo‘qotgan. Keyingi davrlarda o‘zbek tilida bu unli *o* unlisiga almashgan va hozirda ham xuddi shu tovush o‘zgarishga uchragan holatida qo‘llaniladi: *ta:g* = *tag* = *tog* (*ма:э*=*маэ*=*моэ*)

⁴³ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 438-бет

Tay (*maï*) – otning ikki yashardan kichik bolasi. Kun hisobin oy olar, bedov o‘rnin toy olar (Maqol) Turkiy tilda ham hozirda ham aynan shu ma‘noni anglatgan holda qo‘llaniluvchi bu ot dastlab **tay** (*maï*) tarzida talaffuz qilingan. O‘zbek tilida **a** unlisi **o** unlisiga almashgan: tay = toy (*maï* = *moï*).

Sir (*сыр*) – buyum betini qoplash uchun surtiladigan yaltiroq bo‘yoq. Uning baland va siri uchib ketgan ayvonida uch-to‘rtta namozxon bujmayib o‘tirishibdi. Etimologiya jihatidan yondoshsak ushbu so‘zning devon yaratilgan davrda ham turkiy tilda yuqorida keltirilgan ma‘noni anglatishiga guvoh bo‘lamiz. Ot asli (*sir*) **сыр** holatida cho‘ziq talaffuz qilingan. Davrlar o‘tishi bilan o‘zbek tilida **i** (**ы**) unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan. **si:r** = **sir** (**сыр** = **сир**). Mazkur so‘z bugungi kunda ham ayni yuqoridagi ma‘noni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Shuningdek bu leksema ot so‘z turkumi doirasida shakldoshlikka ham ega. Keyingi ma‘nosi esa insonning hammadan yashiruvchi, hech kimga aytolmaydigan yashirin gaplarini anglatadi: U bu sirni kimdir bilib qolishidan qo‘rqar edi.

2.2 “Devonu lug‘oti-t-turk”da ot so‘z turkumiga oid yasama leksemalar etimologiyasi

Ot so‘z turkumi yasaliş xususiyatlariga ko‘ra boshqa turkumdagi so‘zlarga nisbatan ajralib turadi. Eng kata o‘ziga xosligi shundaki, otlarda yasovchi qo‘shimchalar ko‘pligi bo‘lib, ularning ishtirokida yangidan-yangi so‘zlarning yasaliş, shuningdek, so‘zlarning qisqarishi asosida ham yangi so‘zlarning yasaliş ayni shu turkumga xos sanaladi. Aynan shuning uchun ham otlar yangi so‘zlarning yasaliş hisobiga juda tez boyib boruvchi turkumdir. Qadimgi turkiy tilda ham otlar bugungi tilimizdagi kabi ikki xilusulda ya‘ni, morfologik va sintaktik usul bilan yasalgan. So‘z o‘zagiga (negiziga), maxsus so‘z yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shish orqali ot yasaliş morfologik usul bilan yasaliş hisoblanadi. Sintaktik usul orqali yasalişda esa ikki mustaqil so‘z birikib yangi ma‘noni bildiruvchi so‘zni hosil qiladi.

Bugungi kunda ko‘pgina soddalashgan otlar tarixan yasalgan otlar sirasiga kiradi. Jumladan, o‘zbek tilining tarixiy ildizi hisoblanmish “Devonu lug‘oti-t-turk”da qishloq, ovloq, toshloq, o‘choq kabi bir qancha otlar yasalganlik

xususiyatiga ega bo'lgan. Keyinchalik til taraqqiy etavergani sayin soddalashib tub holatga kelib qolgan. Mahmud Koshg'ariyning ushbu qomusiy asari orqali o'zbek tilining shakllanish darajasini, ilk ko'rinishlarini bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Olim o'zi yashayotgan davrda ikki harfdan yetti harfgacha bo'lgan so'zlar mavjud ekanligini ta'kidlab o'tadi. Olimning fikricha, otlar ikki turli: yasama ot va tub otdan iborat bo'ladi. Fe'llardan yasalgan otlar fe'l oxiriga o'n ikki harfdan birini qo'shish bilan yasaladi. Yasama otlar boshqa so'zlardan kelib chiqadi. Bularning ba'zilar turmushda qo'llanib, eshitilib yurilgan bo'lsa, ba'zilar aniq emas, qiyosiy asosdadir. Men iste'moldagilarini berib, muhmallari (iste'moldan chiqqan, ma'nosi noaniq)ni tashladim. Lekin muhmallarni solishtirib aniqlash mumkin bo'larlik qilib, quyidagicha bir qoida yaratdim, fe'llardan yasaluvchi otlar o'n ikki harfdan birining qo'shilishi bilan tuziladi deydi muallif lug'at haqida. Biz quyida yasama otlar va ularning etimologiyasiga –“Devon”dan misollar keltirib o'tamiz:

Aqa (ақа) – so'zi o'zbek tilida bir ota-onadan tug'ilgan katta o'g'il (kichiklariga nisbatan) ma'nosida qo'llaniladi. Ushbu ot qadimgi turkiy tildagi “yoshi katta bo'l” – ma'nosini anglatgan **aq (aq)** fe'lidan **-a** qo'shimchasi bilan yasalgan. O'zbek tilida keyingi davrlarda **q (κ)** undoshi **k (κ)** undoshiga almashgan: $aq + a = aqa = aka$ ($aq+a = aqa = aka$). Bu leksema hozirgi adabiy tilimizda ham **aka** shaklida xuddi o'sha davrdagi ma'noni ifodalash uchun qo'llaniladi. Bugungi kunga kelib bu so'z faqat bir ota-onadan tug'ilgan o'zidan katta yoshdagi o'g'ilga nisbatangina qo'llanilib qolmay, hurmat yuzasidan o'zidan katta insonlarga nisbatan qo'llash holatlari ham tilimizda juda keng tarqalgan. Lekin hozirda grammatik jihatdan bu leksemaga yuqorida keltirilgani kabi yasama sifatida emas, tub so'z sifatida qaraymiz.

Belgu (белгу) – boshqalardan ajratish uchun qo'llaniladigan “alomat”, “tamg'a”. Yangi qo'zilarga o'z podasining belgisini qo'yib chiqdi. Bu ot qadimgi turkiy tilda “farqlan”, “ma'lum bo'l” ma'nosini anglatgan **bel (бел)** fe'lidan **-gu (-zy)** qo'shimchasi bilan yasalgan (I. 403). O'zbek tilida ikkinchi ochiq bo'g'indagi

cho‘ziq *o‘* unlisi qisqa *i* unlisiga almashgan: *bel+gu+belgu* (бэл + гу = бэлгу)⁴⁴. Keyinchalik *belgi* (бэлгу) holatiga kelgan va hozirgi kunda ham xuddi shu *belgi* shaklida o‘sha mazmun (biror narsaning ko‘rinish, hajm, rang va h.k lar jihatidan boshqalardan ajralib turishi, o‘ziga xosligi)ni anglatish uchun qo‘llaniladi. Grammatik jihatdan bu leksema bugungi tilimizga kelib tub so‘z shaklini olgan. Ya‘ni, devonda keltirilgan *bel* (бэл) fe‘li bugungi kunga kelib “farqlan”, “ma‘lum bo‘l” – kabi ma‘nolarini yo‘qotgan va alohida qo‘llanila olmaydi.

Beshik (бешик) – chaqaloqni belab uxlatish uchun yasalgan, tebratishga mo‘ljallangan ro‘zg‘or buyumi. Uning chaqalog‘i beshikda uxlab yotar edi. Ushbu ot qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lib, “yo‘rgak” ma‘nosini anglatgan *be* (бе) otiga *-shi* (-шу) qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan fe‘ldan *-k* (-к) qo‘shimchasi qo‘shib yasalgan; keyinroq *e* unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan (I. 386): (be+shi=beshi)+k=beshik ((бе:+ шу = бе:шу)+к = бешик) natijada *beshik*. Hozirgi kunda ushbu leksema ayni o‘sha predmet (go‘daklarni yo‘rgaklab uxlatish uchun foydalaniladigan buyum)ni anglatish uchun qo‘llaniladi. Grammatik jihatdan esa hozirgi tilimizda ushbu so‘zga tub so‘z sifatida qaraladi.

Biqin (биқин) – belning ichga qarab turadigan suyaksiz yon qismi. Shu kunlarda biqinim biroz og‘rib turibdi. Bu ot qadimgi turkiy tilda “ichga kirib tur ma‘nosini anglatgan” – *biq* (бық) fe‘lidan *-in*(-ын) qo‘shimchasi bilan yasalgan. (I. 380). Keyinchalik *i* (ы) unllarining qattqlik belgisi yo‘qolgan va hozirgi ko‘rinishiga ya‘ni *biqin* shakliga o‘tgan. Bu leksemadagi asos va qo‘shimcha qismlarining ma‘nolari torayib tub holatda qo‘llaniladigan so‘zga aylangan va hozirgi davrda ham aynan o‘sha mazmunni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Bulut (булут) – osmonda g‘uj bo‘lib to‘plangan suv bug‘lari. Osmondagi parcha - parcha bulutlar tezda tarqab ketdi.⁴⁵ Bu ot qadimgi turkiy tildagi “harakatga keltir” ma‘nosini anglatgan *buli*(булы) (I. 336) fe‘lidan *-t*(-т) qo‘shimchasi bilan yasalgan; qadimgi turkiy tilning o‘zidayoq birinchi bo‘g‘indagi *u* (у) unlisining ta‘sirida ikkinchi bo‘g‘indagi *i*(ы) unlisi *u*(у) unlisiga almashgan:

⁴⁴ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет, 2000. 69-бет

buli + t = bulit = bulut (*булы+m=булым=булум*). Hozirgi o‘zbek tilida ham shu mazmuni ifodalovchi ushbu so‘zga grammatik jihatdan tub so‘z sifatida qaraladi. Yuqorida keltirilgan so‘zlar singari ushbu so‘zning asosi ham dastlabki etimologik ma’nosini yo‘qotgan bo‘lib, uning keyingi hosila ma’nosi bizning tilimizda saqlanib qolgan.

Burun (*бурун*) – hid bilish a’zosi. Burnimning chap katagidagi o‘simtani oldirganimdan keyin hid bilmaydigan bo‘lib qoldim. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “hidla” ma’nosini anglatgan **bur** (*бур*) fe’lidan **-un(-ун)** qo‘shimchasi bilan yasalgan: *bur + un = burun* (*бур+ун= бурун*)⁴⁶ (I. 470). Yuqorida keltirilgan so‘zlar kabi ushbu so‘z ham ma’no torayishi, so‘z asosidagi ma’nosining yo‘qolishi natijasida tub leksemaga aylangan va hid bilish a’zosi ma’nosini yaxlit holatda ifodalaydi.

Qurut (*күрүм*) – suzmani yumaloq shaklda quritib tayyorlanadigan mahsulot. Shu kecha boshpana berib, non, mayiz, qurut, ayron bilan mehmon qildilar. Ko‘rib turganimizdek qadimgi turkiy tilda ham hozirgi kundagi kabi ma’noni anglatgan bu ot “suvi, nami qochib, quruq holatga kel” ma’nosini anglatuvchi **quri** (*күры*) fe’lidan (I. 338) **-t(-м)** qo‘shimchasi bilan yasalgan; qo‘shimcha qo‘shilgandan keyin qadimgi turkiy tildayoq ikkinchi bo‘g‘indagi **i** (*и*) unlisi ham birinchi bo‘g‘indagi **u(y)** unlisi ta’sirida **u(y)** unlisiga almashgan: *quri + t = qurut* (*күры + m = күрүм*)⁴⁷. Bu so‘z hozirgi tilimizda ham aynan suzmadan tayyorlanib quritib tayyorlanuvchi mahsulotni anglatib, ikki xil shaklda ya’ni qurut, qurt shakllarida uchraydi. Qurt shakli ko‘proq og‘zaki nutqimizga xos shakl hisoblanadi. Yasama so‘zlar qatorida o‘rganayotgan ushbu leksemamiz ham davrlar mobaynida yaxlitlanib, bugungi kunda tub so‘z shaklini olgan.

Barmak(*бармак*) – panjadagi har bir harakatchan yumaloq cho‘ziq a’zo. Jismoniy ish bilan shug‘ullangani tufayli barmoqlari zirqirab og‘rib qoldi. Ushbu ot qadimgi turkiy tildagi “ushla”- ma’nosini anglatuvchi **bari** (*бары*) (I. 129) fe’lidan **-m(-м)** qo‘shimchasi bilan yasalgan va unga kichraytirish ma’nosini

⁴⁶ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 68-бет

⁴⁷ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 578-бет

ifodalovchi **-ak(-ak)** qo‘shimchasi qo‘shilgan bo‘lsa kerak.⁴⁸ Keyinchalik ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan: (bari + m = barim) + ak = barmak ((бары+м = барым) + ак = бармак). Bugungi kunda ham ushbu leksema yuqoridagi ma‘noni beruvchi so‘z hisoblanib, grammatik jihatdan esa tub so‘zga teng keladi.

Etik (эмык) – uzun qo‘njli poshnali poyafzal”. Qizimga shu etik ma‘qul keldi. Bu ot qadimgi turkiy tildagi kiy (кий) ma‘nosini anglatuvchi **et(эм)** fe‘lidan (I. 98) **-uk(-ук)** qo‘shimchasi bilan yasalgan, o‘sha davrlardayoq ikkinchi bo‘g‘in tarkibidagi qo‘llanilgan cho‘ziq **u (y)** unlisi qisqa **i (u)** unlisiga almashga: $et + uk = etuk = etik (эм + ук = эмык = эмык)$ ⁴⁹. Ushbu ot dastlab “yumshoq charmdan ishlangan oyoq kiyim” ma‘nosini anglatgan, keyinchalik esa oyoq kiyimning ma‘lum bir turini ya‘ni, qish mavsumida; sovuq ob-havoda; qor va yomg‘ir o‘tkazmaydigan oyoq kiyim, qishki oyoq kiyim ma‘nosini bildirib boshlagan va hozirgi kunda ham xuddi shu ma‘noda qo‘llaniluvchi tub leksema sanaladi. Hozirda ham aynan qish mavsumi uchun mo‘ljallangan oyoq kiyimlarni umumiy nom bilan etik deb ataymiz.

Ishik (уууук) – uyga xonaga kiriladigan joy, shunday joyga o‘rnatilib ochilib yopiladigan qurilma. Hovlining eshigi kechasi ochiq qolibdi⁵⁰. Bu ot qadimgi turkiy tildagi **ish (иш)** fe‘lining (I. 78) – “bog‘la” ma‘nosidan **-ik (-ук)** qo‘shimchasi bilan yasalgan bo‘lsa kerak; so‘z boshlanishidagi **i(u)** unlisining cho‘ziqlik belgisi keyinchalik yo‘qolgan va bu unli **e (э)** unlisiga almashgan: $ish + ik = ishik = eshik (u:и + ук = u:иуик = уууук = эууук)$. Ushbu so‘z hozirgi adabiy tilimizda ham uyga yoki uy ichidagi alohida xonalarga va h. k larga kirish uchun o‘rnatiladigan va ochilib yopiladigan predmetni anglatadi. Yuqorida berilgan so‘zlar kabi hozirgi adabiy tilimizda bu so‘z ham o‘zining yasamalik xususiyatini yo‘qotib, tub so‘zlar qatoridan o‘rin olgan.

Etak (этак) – ustki uzun kiyimning pastki qismi. Chophonining etagini belbog‘iga qistirdi. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “kiy” ma‘nosini anglatuvchi **et**

⁴⁸ Раҳматуллаев.Ш.Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 40-бет

⁴⁹ Раҳматуллаев.Ш.Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 471-бет

⁵⁰ Раҳматуллаев.Ш.Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 472-бет

(*эм*) fe'lidan *-ak* (*-ак*) qo'shimchasi bilan yasalgan: et + ak = etak (*эм + ак = эмак*)⁵¹. Devonda etaklandi, etaklig', etaklik so'zlariga berilgan "etakli bo'ldi", "etagi bor", "etak tikishga mos" izohlariga qaraganda (I. 98) etak aslida "kiyim ustiga qo'yiladigan qism" ekanligini anglashimiz mumkin. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, etak so'zi dastlab "ustki kiyimning pastiga qo'yiladigan alohida mato" ma'nosini anglatgan, "kiyimning ajralmas pastki qismi" ma'nosi keyinchalik davrlar o'tishi mobaynida yuzaga kelgan va ushbu mazmunni hozirgi davrda ham saqlab qolgan. Ushbu leksema bugungi kunda ham qo'llaniluvchi keng iste'moldagi ot hisoblanadi. Davr o'tishi bilan ushbu leksemaning asosi ham alohida qo'llanilmaydigan holatga kelgan va qo'shimcha bilan yaxlitlashib tub so'zga aylangan.

Alla (*алла*) – go'dakni uxlatish paytida kuylab aytiladigan misralar". Ona allasidan bebahra qolgan go'daklar ham bor. Bu ot qadimgi turkiy tildagi "tinchlanish" ma'nosini bildirgan *ala-ala* (*ала-ала*) undov so'zidan kelib chiqqan.; o'zbek tilida *l* (*л*) undoshi qatlangan (ikkilangan) va shu orqali yangi so'z hosil bo'lgan; *ala – ala = alla* (*ала – ала = алла*) (I. 118)⁵². Kuylanadigan misralar oxirida kelganida ushbu so'z o'zining undovlik xususiyatini saqlaydi, ushbu misralarning nomi sifatida esa ot so'z turkumiga teng bo'ladi. Ushbu so'z bugungi kunda ham xuddi shu ma'noda va shaklda qo'llaniladiluvchi keng iste'moldagi tub ot hisoblanadi. Ushbu misollarga asoslanib aytishimiz mumkinki, turkiy so'zlarning ko'pchiligi aynan o'sha holatda yoki qisman o'zgargan ko'rinishda hozirgi kunda ham keng qo'llaniladi.

Bilazo'k (*билазўк*) – bilakka taqiladigan ziynat buyumi. Shu payt xonaga bilaguzuk taqqan ayol kirib keldi. Bu qo'shma ot eski o'zbek tilidagi *bilak uzugi* (*билак узуги*) birikmasini bir so'zga birlashtirib hosil qilingan, yaxlit talaffuz qilish natijasida *k*(*к*) undoshi *g*(*г*) undoshiga almashgan va so'z oxiridagi *-i* (*-и*) egalik qo'shimchasi talaffuz qilinmay qo'ygan, shundan keyin so'z oxiridagi *g* (*г*) undoshi yana *k*(*к*) undoshiga qaytgan; *u* (*у*) unlilarining yumshoqlik belgisi

⁵¹ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 470-бет

⁵² Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 28-бет

yo‘qolgan: *bilak uzugi = bilaguzug = bilaguzuk* (билак узуги = билагузуг = билагузук)⁵³. Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zni jumla tarkibida *bilazo‘k* (билазўк) shaklida ham keltirgan (I. 473). Devonda keltirilgan shu misolni inobatga olgan holda o‘sha davrda ham so‘zlashuv nutqida tovush tushishi aks etganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu leksema hozirgi adabiy tilimizda ham ayni shu ma‘no (ayollar bilagiga taqish uchun mo‘ljallangan ziynat buyum)sida qo‘llaniluvchi qo‘shma yasama so‘z hisoblanadi.

Baldiz (*балдиз*) – xotinning singlisi (oz ishlatiluvchi ot). Baldiz boldan shirin (Maqol).⁵⁴. Bu ot aslida qadimgi turkiy tilda “kichik qarindosh” ma‘nosini anglatgan **bal**(*бал*) sifatidan **-diz** (*-дыз*) qo‘shimchasi bilan yasalgan deb tahmin qilinadi. Mahmud Koshg‘ariy devonda bu so‘zning xotinning singlisini anglatishini maxsus ta‘kidlaydi (I. 426); o‘zbek tilida **i** (*и*) unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan va yumshoq holatga o‘tgan: *bal + diz = baldiz = baldiz* (*бал + дыз = балды = балдиз*). Keyinchalik davrlar o‘tishi bilan bu so‘z muomaladan chiqib ketgan va hozirgi kunda deyarli qo‘llanilmaydi.

Kiprik (*күприк*) – ko‘z qovoqlari chetida qator joylashgan tuklar⁵⁵. Ushbu so‘z qadimgi turkiy tilda “ko‘p tikan” ma‘nosini anglatgan **kirpi** (*күпри*) otidan (I.397) kichraytirish ma‘nosini ifodalovchi **-k** (*-к*) qo‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan yasalgan (I. 443), keyingi davrlarda **r(p)** va **p(n)** undoshlarining o‘zaro o‘rni almashgan: *kirpi + k = kirpik = kiprik* (*күпри + к = күприк = күприк*). Hozirgi davrda ham ushbu ot o‘z ma‘nosida va tovush o‘zgarishga uchragan keyingi shaklida qo‘llaniladi. Grammatik jihatdan yuqoridagi kabi yasama leksema emas tub so‘z sifatida qaraladi.

Olqish (*олқиш*) – qo‘llab-quvvatlashni, mamnunlikni bildiruvchi qarsak Yig‘ilganlar uni olqish bilan qarshi oldi⁵⁶. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “xursand qil”, “maqta” ma‘nolarini anglatgan **al** (*ал*) fe‘liga (I. 123) “takror” ma‘nosini ifodalovchi **-qa** (*-қа*) qo‘shimchasining **-qi** (*-қи*) shaklini va **-sh** (*-ш*) harakat nomi qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan ; ma‘no taraqqiyoti natijasida harakat nomi

⁵³ Раҳматуллаев. Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати - Тошкент: Университет. 2000. 49-бет

⁵⁴ Раҳматуллаев. Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати - Тошкент: Университет.2000. 57 -бет

⁵⁵ Раҳматуллаев. Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати - Тошкент: Университет.2000. 209-бет

⁵⁶ Раҳматуллаев. Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати - Тошкент: Университет 2000. 254-бет

otga ko‘chgan; o‘zbek tilida *i* (**и**) unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: (*al + qi = alqi*) + *sh = alqish = alqish* ((*ал-* + *қи=алқи-*)+*ш=алқыш=алқиш*). Bugungi kunda ham o‘zining asl etimologik ma’nosini yo‘qotmagan olqish leksemi grammatik tomondan biroz o‘zgarishga uchragan, ya’ni tub so‘zlar qatoriga o‘tgan.

Sarmusaq (*сармусақ*)(I. 480) – piyozsimonlar turkumiga kiruvchi ko‘p yillik o‘simlik turi”. Bu yil sarimsoqning ham narxi juda ko‘tarilib ketdi. Ushbu ot qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lgan “o‘ra” ma’nosini anglatuvchi *saru* (*сару*) fe’liga (III. 278) *-m* (**-м**) qo‘shimchasini qo‘shib dastlab fe’l yasalgan, keyin esa ushbu fe’lga *-k* (**-к**) qo‘shimchasini qo‘shib ot yasalgan; eski o‘zbek tilida so‘zdagi *u*(**у**) unlisi *i*(**и**) unlisiga almashgan; keyinchalik *i* (**и**) unlisi ham o‘zining qattqlik belgisini yo‘qotgan. Qadimgi turkiy tilda bu so‘zning tovush jihatidan o‘zgargan *sarmusaq*, *samursaq* (*сармусақ*, *самурсақ*) shakllari ham mavjud bo‘lgan Ushbu shakllarning birinchisida *u* va *m* (**у**, **м**) tovushlari, ikkinchisida esa *r* va *m* (**р**, **м**) tovushlari o‘rin almshgan. O‘zbek tiliga bu so‘zning yuqoridagi tovush o‘zgarishlariga uchramagan ilk shakli yetib kelgan va hozirgi tilimizda ayni o‘sha mazmuni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Yuqoridagi so‘zlarda kuzatganimiz singari bu so‘zda ham shakliy torayish, yasama so‘zning davrlar o‘tishi bilan tub so‘zga aylanishining guvohi bo‘lamiz va bugungi kunda ushbu leksemaga ham tub so‘z sifatida qaralishini e’tiborga olishimiz darkor.

Tomir (*тамыр*) – qon harakatlanadigan naychalar. Uning chakka tomirlari bo‘rtib turgan edi⁵⁷. Qadimgi turkiy tilda ham qon harakatlanadigan naycha ma’nosida qo‘llanilgan bu so‘z *tamar* (*тамар*) *tamur* (*тамыр*) (I. 343); *tamir* (*тамыр*) (I. 456) shakllarida ishlatilgan. Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, **-ur** (**-ур**), **-ar** (**-ар**), **-ir** (**-ыр**) qismlari ayni bir qo‘shimchaga teng bo‘lib; bu qo‘shimchalarning barchasi fe’ldan ot yasashga xizmat qilgan. Lekin *tam*(*там*) fe’li qanday ma’noni anglatishini aniq aytish qiyin; bu fe’l “ tomchi holatida tush ” ma’nosini anglatgan bo‘lsa kerak degan fikrlar mavjud. Bu otning asosini biz *tam* (*там*) deb belgilasak, o‘zbek tilida *a* unlisi *o* unlisiga almashgan, *i* (**и**) unlisining

⁵⁷ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 347-бет

qattqlik belgisi yo‘qolganini ko‘rishimiz mumkin. Tam + ir = tamir = *tomir* (*mam* + *ыр* = *тaмыр* = *тoмир*). Bu leksema bugungi kunda tub leksemaga aylangan bo‘lib, mazmunan o‘zgarishga uchramagan, ya’ni yuqorida keltirilgan mazmuni anglatish uchun qo‘llaniladi.

Tamg‘aq (*тамзақ*) – Qizilo‘ngachning boshlang‘ich qismi, bo‘g‘iz. Uning badani qizg‘in, tomog‘i qaqragan, yuragi shiddatli urar edi. Qadimgi turkiy tilda ham shu ma‘noni anglatgan ot asli **tamg‘aq** (*тамзақ*) tarzida talaffuz qilingan (I. 435), keyinchalik g‘(z) undoshi talaffuz qilinmasligi natijasida **tamaq** (*тамақ*) shakli yuzaga kelgan. **Tamg‘aq** (*тамзақ*) oti aslida “*tomchi holatida tush*” ma‘nosini anglatuvchi **tam**(*там*) fe‘liga “takror” ma‘nosini bildirish uchun ifodalanuvchi **-g‘a** (*-за*) qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil bo‘lgan shaklidan **-q**(*-қ*) yasovchi qo‘shimchasi bilan yasalgan. Davrlar mobaynida o‘zbek tilida **a** unlilari **o** unlilariga almashgan: (*tam* + *g‘a* = *tamg‘a*) + *q* = *tamg‘aq* = *tamaq* = *tomoq* ((*mam* + *za* = *mamza*) + *q* = *тамзақ* = *тамақ* = *тoмoқ*). Hozirgi tilimizda keng iste‘molda qo‘llaniluvchi bu leksema ham davrlar mobaynida tub so‘z shakliga kelgan va tub so‘zlar qatoridan o‘rin olgan.

Упуз (*urug‘*) – hosila uchun asos bo‘ladigan narsa. Sarhil urug‘ eksang tez va baquvvat unib chiqadi. Bu ot qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lib, “hosil qil”, “yarat” ma‘nosini anglatuvchi **ur**(*ур*) fe‘liga **-ug‘**(*-уз*) qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan (I. 95): *ur* + *ug‘* = *urug‘* (*ур* + *уз* = *уруз*). (Devonda keltirilishicha *урчи* so‘zi ham aynan *ур* fe‘lidan yasalgan). **Urug‘** leksemasi ham hozirgi tilimizga tub so‘z sifatida yetib kelgan. Shuni aytishimiz kerakki, ushbu so‘z devonda ham omonim so‘z sifatida berilgan. Ekiladigan urug‘, yoki qarindosh urug‘ ma‘nolari alohida ma‘noni anglatadi va bugungi kunda ham bu leksema o‘zining mazkur xususiyatini saqlab qolgan.

Qayg‘u (*қазғу*) – g‘am-g‘ussa, dard-alam. Ko‘pdan endi yo‘qdir dilda qayg‘u, nolalar. Devonda ham aynan shunday izoh berilganligidan bilishimiz mumkinki, bu leksema qadimgi turkiy xalqlarning tillarida ham shunday ma‘noda qo‘llanilgan. Ushbu ot *қазғу*, *қадғу*, *қайғу* (III. 310) shakllarida talaffuz qilingan; hozirgi o‘zbek tiliga **qayg‘u**(*қайғу*) shakli yetib kelgan. Ba’zi holatlarda

so‘zlashuv nutqida so‘z oxiridagi u unlisi i unlisiga almashtirib talaffuz qilinadi (Biz bilamizki so‘z oxiridagi u unlisining i unlisiga almashuvi turkiy tillarda adabiy me‘yor hisoblanadi). Qayg‘u so‘zini cholg‘u, tuyg‘u, urg‘u so‘zlari bilan qiyoslashdan ko‘rinib turibdiki, bu ot **-g‘u (-xy)** qo‘shimchasi bilan “g‘am-alam chek” ma‘nosini anglatuvchi **qaz(қаз)** fe‘lidan yasalgan: $qaz + g‘u = qazg‘u = qayg‘u$ ($қаз + xy = қазxy = қайxy$)⁵⁸. Qadimgi turkiy tilda bunday fe‘lning mavjudligi isboti sifatida Mahmud Koshg‘ariyning mazkur devonda ta‘kidlagan **qazirindi (казырынды)** so‘zini keltirishimiz mumkin (II. 310). Bu so‘z asli qazirin, **qazirin (казырын)** – shakliga ega bo‘lgan va **-ir (-ыр)** qismi kuchaytirish ma‘nosini, **-in (-ын)** qismi esa “o‘zlik” ma‘nosini ifodalagan: *qazirin – qayg‘ulari, qazirindi – qayg‘ulandi (казырын – қайгулари, казырынды – қайгуланди)*. Qadimgi turkiy tilda fe‘ldan yasalgan bu ot hozirgi tilimizda yaxlitlanib tub so‘z shaklini olgan holda, insonlardagi og‘ir ahvolga tushish, g‘am-iztirob chekish kabi ma‘nolarini anglatuvchi leksema hisoblanadi.

Qo‘naq (қонақ) – biror kishining uyida to‘xtagan yo‘lovchi, mehmon (eskirgan). Afandim, qo‘nog‘imizni zeriktirib qo‘ymaylik⁵⁹. Qadimgi turkiy tilda bugungi kundagi kabi ma‘noni ifodalagan holda qo‘llanilgan bu otning kelib chiqishiga etimologiki tomondan yondashsak u “ma‘lum bir sathdan joy ol” ma‘nosini anglatuvchi **qon(қон)** fe‘lidan **-uq(-уқ)** qo‘shimchasi bilan yasalganligini devondan aniqlashimiz mumkin (I. 365); keyinchalik ikkinchi bo‘g‘in tarkibidagi **u (y)** unlisi **a (а)** unlisi bilan almashgan: $qon + uq = qonuuq = qonaq = qo‘noq$ ($қон + уқ = қонуқ = қонақ$). Bu leksema bu shaklda bugungi tilimizda deyarli qo‘llanilmaydi, uni ba‘zi o‘zbek shevalardagina uchratishimiz mumkin. Hozirda aynan ushbu mazmunni ifodalash uchun tilimizda *mehmon* so‘zi qo‘llaniladi.

Qo‘shug‘(қошуг‘) – ashula. Ko‘cha tomondan childirma va qo‘shiq ovozi eshitildi. Qadimgi turkiy tilda “birlashtir”- ma‘nosini anglatuvchi **qosh(қош)** fe‘lidan **-ug (-уғ)** qo‘shimchasi bilan yasalgan (I. 357). Bu ot asli *she‘r, qasida*

⁵⁸ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет.-2000. 515-бет

⁵⁹ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 586-бет

ma'nosini anglatgan, ma'no taraqqiyoti natijasida “ashula qilib aytiladigan she'r” umuman “ashula” ma'nosi yuzaga kelgan⁶⁰. Eski o'zbek tilida bu so'z oxiridagi **g'(z)** undoshi **q(κ)** undoshiga almashgan; keying davrlarda talaffuzga moslashish natijasida ikkinchi bo'g'indagi **u(y)** tovushi **i(u)** unlisiga almashgan: *qosh + ug' = qoshug' = qoshuq = qo'shiq* (*qow + yz = qowuz = qowuyq = qowuyk*). Bugungi adabiy tilimizda kuylanadigan, eshitish uchun mo'ljallangan barcha ohangdorlikka ega bo'lgan shakllarni qo'shiq deb aytishimiz mumkin. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ushbu so'z mazmuniy tomondan hech qanday o'zgarishga uchramagan, ammo shakliy tomondan tub so'zlar qatoridan o'rin olgan.

Kulgu (кулгу) – xursandchilik, zavq- shavq holatini ifodalovchi ovozlardir. Siddiqjon kimningdir qattiq kulgisidan uyg'onib ketdi. Bu ot qadimgi turkiy tilda “xursandlik, zavq-shavq holatini ifodalovchi ovozlardir chiqar ma'nosini ifodalovchi” **kul (кул)** fe'lidan **-gu (гу)** qo'shimchasi bilan yasalgan (I. 405); o'zbek tilida **u (y)** unlilarining yumshoqlik belgisi yo'qolgan, ikkinchi ochiq bo'g'in tarkibidagi cho'ziq **u (y)** unlisi davrlar o'tishi natijasida qisqa **i (u)** unlisiga aylangan: *kul + gu = kulgu = kulgi* (*кул + гу = кулгу = кулгу = кулгу*). Hozirda mazmunan va shaklan o'zgarishga uchramagan so'zlarga misol qilib kulgu so'zini ham keltirishimiz mumkin. Buning sababi shundaki bu so'z hozirgi tilimizda ham aynan *kulmoq* fe'lidan yasalgan yasama leksema hisoblanadi. Mazmunan ham aynan o'sha davrda ifodalagan mazmunni ifodalab keladi.

Orun (орун) – ishg'ol qilinadigan joy, sath(II. 206). Ba'zilar o'tirgan o'rnidan ham tura olmadi. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “joyla” – ma'nosini anglatgan **or (op)** fe'lidan **-un(-ун)** qo'shimchasi bilan yasalgan⁶¹. O'zbek tilida til taraqqiyoti va talaffuzdagi o'zgarishlar natijasida ikkinchi bo'g'inda qo'llanilgan **u(y)** unlisi **i(u)** unlisiga avvalo talaffuzda, keyinchalik butunlay almashgan: *or + un = orun = orin* (*op + un = орун = орун*). Bugungi kunda tilimizda mazmun jihatidan o'zgarishga uchramagan ushbu leksema shakliy jihatidan o'zgargan,

⁶⁰ Раҳматуллаев. Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 586-бет

⁶¹ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет.-2000. 487-бет

talaffuzi toraygan *o'rin* holatida qo'llaniladi, grammatik jihatidan yasama leksema emas tub leksema sifatida yetib kelgan.

Orgak (opzak) – o'simlikni poyasi bilan kesish quroli (I. 141). Bug'doyni o'roq bilan o'rdik. Bu ot qadimgi turkiy tilda “poyasi bilan kes” ma'nosini anglatuvchi **or (op)** fe'lining “takrorini ifodalovchi” **-g'a (-za)** qo'shimchasi bilan hosil bo'lgan shaklidan **-k (-κ)** qo'shimchasi qo'shib yasalgan⁶² Keyingi davrlarga kelib g'(z) undoshi tovush tushishiga uchrab talaffuz etilmay qo'ygan; o'zbek tilida **a** unlisi dastlab talaffuzda keyinchalik, doimiy **o** unlisiga almashgan: (*or + ga = orga*) + *k* = *orgak* = *orak* = *o'roq* (*(op+ za = opza)* + *κ* = *opzak* = *орак* = *ороқ*). Bugungi kunda ham o't o'rish buyumi ma'nosini anglatuvchi bu so'z yasama so'z hisoblanadi. Bu ot **o'r** fe'liga **-oq** ot yasovchi qo'shimchasi qo'shish orqali hosil qilingan deb grammatik tahlilda berishimiz mumkin *o'r+oq= o'roq*.

Бағна - **pog'ona-** “pillapoya”, “zinapoya”, “bosqich” (I. 408). Mirzakarimboyning xotini narvonchanning har pog'onasiga qadam qo'yganda “bismillo”ni takrorlab aravaga o'tirdi. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “yog'och ustunni qoq” ma'nosini anglatgan **baqan (бақан)** fe'lidan **-a (-a)** qo'shimchasi orqali yasalgan; vaqt o'tishi bilan ikki unli oralig'idagi **q(κ)** undoshi **g'(z)** undoshiga, so'z boshlanishidagi **b(б)** undoshi **n(н)** undoshiga almashgan. O'zbek tilida birinchi, ikkinchi bo'g'indagi **a** unlilari **o** unlilariga almashgan, uchinchi bo'g'indagi **a** unlisi o'z holatida qolgan: *baqan + a = baqana = bag'ana = rag'ana = pog'ona* (*бақан + a = бақана = бағана = пағана = поғона*)⁶³. Devonda ushbu so'z **bag'na (бағна)** shaklida keltirilgan: Bundan ko'rishimiz mumkinki bag'an(**баған**) fe'liga **-a(-a)** qo'shimchasi qo'shilganidan keyin ikkinchi bo'g'indagi **a** unlisi tovush tushish hodisasiga uchrab talaffuz qilinmay qo'ygan bo'lib chiqadi: *bag'an + a = bag'na* (*баған+ a = бағна*). Hozirgi o'zbek tilida yuqoridagi mazmunni ifodalash uchun qo'llaniluvchi bu so'z grammatik jihatdan tub so'z hisoblanadi.

⁶² Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет.-2000. 488-бет

Bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, “Devonu lug‘oti-t-turk” asari va turkiy tillar, xususan, o‘zbek tiliga doir yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, turkiy tillarning ilk taraqqiyot bosqichlarida til sofligi tamoyili yetakchilik qilgan, tilning barcha sathlarida, jumladan, lug‘aviy va so‘z yasalishi sathida ham asosan ichki manba va vositalar asosida ish ko‘rilgan. Ya’ni so‘z yasalishida ko‘proq qo‘shimchalardan foydalanilgan. Shuni e’tiborga olishimiz lozimki, devonda keltirilgan yasama leksemalarning ko‘pchiligi bugungi kunda tub so‘zlar hisoblanadi. Bunga misol qilib, burun, pog‘ona, beshik, barmoq va h. k so‘zlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Birgina shu misollar orqali bizda tilimiz asar yaratilgandan beri o‘tgan davr mobaynida qanchalik o‘zgarishlarga uchragani haqida tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin.

Tub otlariga oid so‘zlar Devonu lug‘oti-t-turkning I va II jildlarida batafsil berib o‘tilgan. So‘zlar soni ko‘pligi sababli ayrimlarini misol keltirib o‘tish bilan cheklandik, xolos. Mavzuni o‘rganish davomida to‘plangan ma’lumotlar asosida tub otlarning etimologiyasi, hozirgi qo‘llanilish holati haqida ma’lumotlarni berdik.

Umuman olganda, ot so‘z turkumi nafaqat o‘n asr oldingi tilshunosligimiz, balki hozirgi o‘zbek adabiy tilining ham muhim o‘rganilib kelayotgan obyektlaridan biridir. Bugungi kunda ushbu turkum doirasida ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Biz ham “devonu lug‘oti-t-turk” dagi tub so‘zlar va ularning etimologiyasini o‘rganishda oz bo‘lsa ham , o‘z hissamizni qo‘shishga harakat qildik.

Yasama otlarning etimologiyasini ko‘rib chiqqanimizda ularning ko‘pchiligi bugungi kunda tub otlarga aylanganligining guvohi bo‘ldik. Balki bunga sabab bo‘lgan omillardan biri davrlar o‘tishi mobaynida so‘z ma’ nolarining tublashishi, ba’zi yasovchi qo‘shimchalar o‘zining xususiyatini yo‘qotganligidir. Lekin shunisi e’tiborliki shakl jihatidan ozgargan bu kabi so‘zlar mazmun jihatidan deyarli o‘zgarmagan va yoki qisman o‘zgarishga uchragan holatda hozirgi tilimizda keng qo‘llanilib kelinmoqda.

III BOB. “DEVONU LUG‘OTI-T-TURK”DA FE‘L SO‘Z TURKUMIGA OID TURKIYCHA LEKSEMALAR ETIMOLOGIYASI TAVSIFI

3.1. “Devonu lug‘oti-t-turk”da fe‘l so‘z turkumiga oid tub leksemalar etimologiyasi

Qata (qama) –.biriktir, sanch, ek. Sen biror ko‘ylakning yoqasini qiyshiq qadab qo‘ysang, ishga sovuqqonlik bilan qaraganing uchun javobgar bo‘lamiz. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu fe‘l aslida *qata (qama)* tarzida talaffuz qilingan; keyinchalik eski o‘zbek tilida ikki unli oralig‘idagi jarangsiz **t(т)** undoshi jarangli **d(д)** undoshiga almashgan. Natijada *qada (qada)* shakli vujudga kelgan. Hozirgi o‘zbek tilida **a** unllarining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan: qata = qada (*qama = qada*)⁶⁴. Ushbu fe‘l hozirgi o‘zbek tilida ham xuddi shu holatda qo‘llanilib keladi. Uning shakl jihatidan o‘zgarishi turkiy tillardagi “d” lashish davri bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bizga ma‘lumki bu davrda turkiy tildagi ko‘plab so‘zlarning asosidagi jarangsiz “t” tovushi jarangli “d” tovushiga almashgan. Bugungi o‘zbek tilimizda ushbu fe‘l o‘zining asl ma‘nosidan tashqari ko‘chma ma‘noni ifodalashda ham keng qo‘llaniladi. Mas: Yigit nigohlarini bir joyga qadab, xuddi jonsizdek turar edi. Demak ayrim leksemalar davr o‘tishi bilan ko‘chma ma‘noga ega bo‘lishi ham mumkin. Buni yuqorida keltirilgan ushbu misoldan ko‘rishimiz mumkin.

Qazi (qazy) –. yerni chuqur hosil qilish maqsadida o‘y, kovla. Birovga choh qazisang, o‘zing yiqilasan (Maqol). Bu fe‘l qadimgi turkiy tilda ham yuqorida keltirilgan ma‘noni anglatgan bo‘lib *qazi (qazy)* tarzida talaffuz qilingan. (III. 280); asli *qaz (qaz)* fe‘liga “takror” ma‘nosini ifodalovchi **-i(-ы)** qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan. O‘zbek tilida **a** unllarining cho‘ziqlik belgisi **i(ы)** unllarining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: *qaz + i = qazi (qaz + ы = qazy = qazi)*. Bu fe‘l hozirgi o‘zbek tilimizda xuddi shu o‘zgargan keyingi ko‘rinishida saqlanib qolgan. Ba‘zi o‘zbek tili shevalarida esa *qaz (qaz)* shaklida ham ishlatiladi. Mas: Bu chuqurni tezroq qaz, gullarni kech tushguncha ekib bo‘lishing kerak. Ko‘rib turganimizdek ushbu fe‘l

⁶⁴ Кошғарий. Махмуд . Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. - Тошкент: ЎзФА нашриёти. III 1960. 502–6..

ham hozirgi tilimizda keng iste'moldagi harakat fe'llaridan biri bo'lib uning mazmuniy etimologiyasida o'zgarish kuzatilmaydi.

Qayir (қайир) – buklab qavatla, orqaga buk. Mehmon tanchaga o'tirmay, namatning uchini qayirib, pastroqqa cho'kkaladi. Bu so'z asli qadimgi turkiy tildagi "orqaga o'giril" – ma'nosini anglatgan **qay(қай)** fe'lidan (III. 263) **-ir(-ыр)** orttirma qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan. (III. 212. қайрышды); keyinchalik o'zbek tilida **i (ы)** unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: қай+ ыр= қайыр= қайир. Shuningdek devonda bu so'z **qazur, qazir (қазур, қазыр)** shakllarida ham berilgan. Demak **qay(қай)** fe'li **qaz(қаз)** tarzida ham talaffuz qilingan va qo'llanilgan. Ushbu fe'l bugungi kunda ham yuqoridagi o'zgargan shaklda o'sha mazmunni ifodalash uchun qo'llaniladi. Lekin uni yuqoridagidek asos va qo'shimchaga ajrata olmaymiz. Sababi bu fe'lda asos sifatida berilgan qay fe'li o'zining "orqaga o'giril" ma'nosini yo'qotgan va bugungi kunda yaxlit holda qayir shaklini olgan va mazmunan o'zgarmagan.

Qayna (қайна) – issig'lig'i ma'lum darajaga borgandan keyin bug'lanib qaynab turish holati. Tikilgan qozon qaynamas (Maqol). Bu so'z qadimgi turkiy tilda "bug' chiqarib vaqirla" ma'nosini anglatgan **qayin (қайин)** fe'lidan "takror", "kuchaytirish" ma'nosini ifodalovchi **-a** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan; qo'shimcha qo'shilganidan keyin ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan, a unllari cho'ziqligini yo'qotgan: **qayin + a = qayina = qayna (қайин+a= қайина= қайна)**. Ushbu fe'lni yuqorida ko'rsatilganidek asos va qo'shimchaga ajralishi turkiy tilga xos. Bugungi kunda esa u yaxlit holdagi so'z hisoblanadi va mazmunan o'zgarish kuzatilmaydi

Qalqi (қалқы) – pastdan yuqoriga ko'taril. Daraxtlar ortidan oy qalqib, sekin ko'tarila boshladi. Bu so'z eski o'zbek tilida qadimgi turkiy tildagi "yuqoriga ko'taril" – ma'nosini anglatgan **qali(қалы)** fe'lining "o'zlik" ma'nosini ifodalovchi-q(-к) qo'shimchasi qo'shilgan shaklidan kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi **-i(-ы)** qo'shimchasi bilan hosil bo'lgan; keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan, a unlisi tor unliga almashgan, ы unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: (**qali + q = qaliq**) + **i = qaliqi = qalqi**

((қалы+қ=қалық)+ы= қалықы= қалқы=қалқи)⁶⁵. Hozirgi adabiy tilimizda ham shunday mazmuni ifodalash uchun qo‘llaniluvchi ushbu so‘z qalq (қалқ) shaklida ham qo‘llaniladi (ko‘proq badiiy va so‘zlashuv uslublarida; og‘zaki nutqda va xalq tilida). Sen yulduzsan oy kabi qalq. Shuningdek ushbu fe‘l ko‘makchi fe‘l bilan ham birga kelishini ko‘p hollarda kuzatamiz. Masalan: qalqib chiqmoq, qalqib ketmoq, qalqib qo‘ymoq va h. k.

Qarma (қарма) – o‘rab, qoplab, egalla. Kosa ko‘targan xotin-xalaj qozonning atrofini o‘rab oldi. Mahmud Koshg‘ariy biz o‘rganayotgan ushbu lug‘atida *qarmashdi (қармашы)* so‘zini keltirib, “tortib olishdi” ma‘nosini anglatishini aytgan (II. 257)⁶⁶. Bu so‘z tarkibidagi **-sh (-ш)** qismi “birga”, “ko‘plik” ma‘nosini ifodalaydi, **-ma(-ма)** qismi esa kuchaytirish ma‘nosini ifodalovchi qo‘shimcha. Demak, *qarmashdi (қармашы)* so‘ziga berilgan izohga ko‘ra **qar (қар)** qismi fe‘lga teng, lekin bunday fe‘l manbalarda keltirilmagan. M Koshg‘ariy lug‘atida keltirilgan qardi (қарды III. 198) fe‘li suvning toshishini anglatishi aytilgan. Ana shu fe‘l asli keng ma‘noda “qoplab egalla” ma‘nosini anglatgan bo‘lsa kerak. Yuqoridagi ma‘lumotlarga ko‘ra qamra fe‘liga quyidagicha izoh berish mumkin: qadimgi turkiy tildagi “qoplab egalla” ma‘nosini anglatgan **qar (қар)** fe‘lidan kuchaytirish ma‘nosini ifodalovchi **-ma (-ма)** qo‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan paydo bo‘lgan **qarma**; keyinchalik **r va m** undoshlari o‘zaro o‘rin almashgan: $qar + ma = qarma = qamra$ ($қар + ма = қарма = қамра$). O‘TILda qarma fe‘li keltirilib, shevaga xos deb belgilangan, vaholanki devondagi berilishiga nazar solsak bu holat aksincha bo‘lib: *qarma (қарма)* so‘zning asl shakli bo‘lib, *qamra (қамра)* shevalarda tovush jihatidan o‘zgargan shakli hisoblanadi.

Qari (қари) – keksay, qartay. So‘ramang, endi men ham qarib qoldim. Qadimgi turkiy tilda ham, eski turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatish uchun qo‘llanilgan ushbu fe‘l asli **qari (қары III. 279)** tarzida talaffuz qilingan; keyinchalik o‘zbek tilida **ы** unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: $qari = qari$

⁶⁵ Кошғарий.Махмуд Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталибов. -Тошкент: ЎзФА нашриёти. III 1960. 518–б..

⁶⁶ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 520-бет

(*қары= қару*). Bu fe'l aslida **-i (-ы)** qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lsa kerak, lekin manbalarda bunday yasalishga asos bo'ladigan hech qanday so'z berilmagan. Shu sababli ham bu so'zni yasama so'zlar qatorida emas tub so'zlar qatorida berishga qaror qildik. Hozirgi kunda ham eski turkiy tildagi kabi bu so'z sifat va fe'l turkumida shakldoshlik hosil qiladi. Mas: Biz ham endi qariyapmiz (fe'l), bir qari ayol juda ham qiyin ahvolda hayot kechirar edi, lekin hech qachon bundan nolimas edi (sifat).

Qizg'an (қузған) – biror narsani kimgadir berishga og'rin, rashk qil. Ayrin so'rab kelgandan chelagingni ham qizg'anma (Maqol)⁶⁷. Bu fe'l qadimgi turkiy tilimizda ham shunday ma'noni anglatish uchun qo'llanilganligini devondan ko'rishimiz mumkin. Mazkur so'z aslida “nimanidir biror narsa oldida kuch bilan siq” ma'nosini anglatuvchi **qis (қыс)** fe'lga (II. 291) kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi **-g'a (-ға)** qo'shimchasini va “o'zlik” nisbati ma'nosini ifodalovchi **-n (-н)** qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan; keyinchalik **s (с)** undoshi **g'(э)** undoshining ta'sirida **z (з)** undoshiga almashgan, **i (ы)** unililarining qattqlik belgisi yo'qolgan: ($qis + g'a = qisg'a$) + $n = qisg'an = qizg'an$ (($қыс + га = қысга$) + $н = қысған = қызған$). Bugungi kunda ham ushbu fe'l qizg'an, qizg'anmoq, qizg'andi kabi so'zlarda qo'llanilib yuqorida keltirilgan ma'nolari o'zgarishga uchramagan. Lekin, hozirgi o'zbek tilida bu so'zni qis asosidan hosil qilingan deb asos va qo'shimchalarga ajrata olmaymiz. Shuningdek qadimgi turkiy tilda kuchaytirish ma'nosini anglatgan **-g'a (-ға)** qo'shimchasi bugungi tilimizda aynan bunday ma'noni anglatadi deya olmaymiz. Ushbu qo'shimchaga ega bo'lgan olg'a, badarg'a kabi so'zlar tarkibida ham bu qo'shimcha yaxlitlanib qolgan va qo'shimcha o'z ahamiyatini yo'qotgan.

Qiy (қый) – qaychi bilan kes. Bu qaychi mato u yoqda tursin, qog'ozni ham qiymay qo'yibdi. Qadimgi turkiy tilda bu fe'l **qiy (қый)** tarzida talaffuz qilingan (III. 264); o'zbek tilida **i (ы)** unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan⁶⁸. Bu fe'l aslida “yotiq holatda kes” ma'nosini anglatgan, keyinchalik esa ma'noda kengayish yuz

⁶⁷ Раҳматуллаев. III. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 541-бет

⁶⁸ Раҳматуллаев. III. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 541-бет

berib umuman qaychi bilan kes ma'nosini anglata boshlagan. Hozirda ham ushbu ma'noni anglatuvchi so'z og'zaki nutqda nisbatan kam qo'llaniladi. Buning sababi shundaki, mazkur so'zning sinonimlari (variantlari) hozirgi tilimizda mavjud. Mas: qirqmoq, kesmoq va. h.k. Shuningdek, hozirgi o'zbek tilida ushbu fe'lining ko'chma ma'noda ishlatilishi ham kuzatiladi. Mas: Birovning rizqini qiymoq, Saidiy bunga ishonmasa ham, Munisxonning shu harakati uning umridan kata qismini qiydi.

Egildi (егилди) – yog'och egildi. Boshqalarga nisbatan ham qo'llanadi. Maqolda shunday qo'llaniladi: Quruq yog'och egilmaydi, qurigan kirish (novda) bog'lanmaydi, tugilmaydi. Bu maqol biror narsani ishlatishda haddan oshirib yuborilgandan keyin u narsa avvalgi holatiga qaytmaydi, degan mazmunda ishlatiladi⁶⁹. Asarda berilgan misoldan ma'lumki ushbu fe'l devon yaratilgan davr tilida ham aynan bugungi kundagi kabi ma'noni ifodalash uchun qo'llanilgan bo'lib, bugungi kunda ham keng iste'moldagi leksema sanaladi. Hozirgi o'zbek tilida ushbu fe'l majhul va o'zlik nisbat shakllariga ega. Shuningdek o'z va ko'chma ma'noda ham qo'llaniladi.

Qorq (қорқ) – qo'rquv his et Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar (Maqol). Qadimgi turkiy til davrida ham yuqoridagi kabi ma'noni anglatgan bu fe'l asli "qo'riqla" ma'nosini anglatuvchi **qori (қоры)** (III. 427) fe'lidan o'zlik ma'nosini ifodalovchi **-q(-қ)** qo'shimchasi bilan hosil qilingan; Qo'shimcha qo'shilganidan keyin ikkinchi bo'g'in tarkibidagi tor unli umuman talaffuz qilinmay qo'ygan **qori + q = qoriq = qoruiq = qo'rq (қоры+қ= қорық= қорук = қорқ)**⁷⁰. Bugungi kunda ham tilimizda ushbu so'z qo'rquv his etmoq, qo'rquv hissiga berilmoq kabi ma'nolarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Mas, U hech narsadan qo'rqmaydi. Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar (Maqol). Lekin ayni davr o'zbek tilida ushbu leksemani qorimoq fe'lidan kelib chiqqan deb izohlay olmaymiz. Tilimizda qo'ri fe'li hozirda ham biz yuqorida keltirgan ma'noda qo'llaniladi, lekin ushbu fe'l davrlar o'tishi bilan mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan shaklda tilimizga yetib

⁶⁹ Кошғарий. Махмуд Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. -Тошкент: ЎзФА нашриёти. II. 1960. 103 - б

⁷⁰ Раҳматуллаев.Ш.Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 588-бет

kelgan. Ya'ni umumiy shakl qo'rq holati hozirda bitta yaxlit asos sifatida qaraladi. Ushbu leksemani asos va qo'shimchaga ajrata olmaymiz. Bundan kelib chiqsak so'zlarda davrlar mobaynida qo'shimcha va asosning birlashuvi ham yuz berishi, ya'ni qo'shimchalar vazzifasining torzyishi ham kuzatiladi deyish mumkin.

Termil (термил) – umid bilan suqlanib qara, jovdirab uzoq qarab tur. Chol o'g'lining ko'zlariga termilib Botiralidan gapirib ketdi⁷¹. Devon yaratilgan qadimgi turkiy til davrida ham shunday ma'noni ifodalash uchun qo'llanilgan ushbu fe'l aslida **telmir (телмур)** tarzida talaffuz qilingan; O'zbek tilida **r,l (р, л)** undoshlari o'rin almashgan: **telmir(телмур) = termil(термил)** (II. 208). Bu so'z asli “o'ng va chap tomonga qara” ma'nosini anglatgan bo'lib hozirgi ma'nosi keyin yuzaga kelgan. O'TILda keltirilgan ta'kiddan ma'lum bo'ladiki, so'zlashuv nutqida bu so'z **telmir, telmo'r** shakllarida ham talaffuz qilinadi. Asli adabiy til uchun qadimgi tildagi **telmir** - shaklini tanlash, **termil** - shaklini esa so'zlashuv nutqiga xos deb ta'kidlash to'g'ri. Bugungi kunda ushbu so'z ko'z uzmasdan uzoq qarab qolmoq, tikilmoq, umid bilan, biror ichki hissiyot bilan boqmoq singari ma'nolarni ifodalaydi. Ular bir-birlariga uzoq termilib-termilib ma'yus boqib turardilar. Bu tub fe'l mazmun jihatidan biroz o'zgargan bo'lsada asl etimologik mazmunini saqlab qolganligini misollardan ko'rishimiz mumkin. Bundan oldingi fe'llarda kuzatilganidek shakliy o'zgarish ushbu fe'lda ham tovush o'zgarishi, o'zaro o'rin almashishi hisobiga yuzaga kelgan bo'lib hozirgi tilimizda keying o'zgargan shakli keng qo'llanilib kelmoqda.

Tarmash (тармаш) – mahkam ushla, yopish. “Ana onang keldi”, – dedi Muhammadjon etagiga tarmashgan bolalarining bir-bir boshini silab⁷². Bu so'z qadimgi turkiy tildagi “tirna” ma'nosini anglatgan **tarma(тарма)** fe'lidan(II. 419) “o'zlik” ma'nosini ifodalovchi **-sh(-ш)** qo'shimchasi bilan hosil qilingan; o'zbek tilida a unlilarining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan. O'TILda bu so'zning tirmash (тирмаш) fe'lining ikkilamchi shakli sifatida berilgan. Darhaqiqat, devonda bu so'z **tirmashdi (тырмашды)** (II 241) shaklida ham keltirilgan

⁷¹ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 332-бет

⁷² Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 378-бет

Ko'rinadiki, bu so'z asli "*tirnoq bilan yuz terisini til*" ma'nosini anglatgan тыр-
fe'lining kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -ма qo'shimchasi bilan hosil
qilingan shakliga o'zlik ma'nosini ifodalovchi -ш qo'shimchasi qo'shib hosil
qilingan; qadimgi turkiy tildayoq ы unlisi a unlisiga almashgan: *tarma + sh =*
tarmash (mapma + u = mapmau). Hozirgi tilimizda ham bu so'z yuqotidagi
mazmunni anglatish ucgub qo'llaniladi. E'tiborlisi shundaki, devonda keltirilgan
har ikki tirmashdi, tarmashdi shakllar ham bugungi tilimizda mavjud. Ular
mazmunan sinonimlik xususiyatiga ega bo'lib, bir xil ma'noni anglatadi. Bu so'z
davrlar o'tishi bilan tovush o'zgarishiga uchragan. Buning sababi talaffuzda ba'zi
cho'ziq unlilarni talaffuz qilishdan ko'ra qisqa unlilarni talaffuz qilish
osonroq. ekanligi tufayli ularningdastlab talaffuzda aks etishi, keyinchalik
so'zning shu holatda qotib qolishi ekanligini ko'pgina misollarda ko'rishimiz
mumkin.

Bizga ma'limki, harakat tushunchasini anglatuvchi so'zlar fe'l deyiladi.
Harakat ma'nosi juda keng tushuncha bo'lib, o'ylamoq, xayol surmoq fikrlamoq
singar tafakkur, yugurmoq, sakramoq., ishlamoq kabi jismoniy faoliyat, so'zlamoq,
demoq, aytmoq kabi nutq, uxlamoq, mudramoq, kutmoq , kulmoq kabi holat, qurmoq,
chizmoq, yasamoq, yaratmoq kabi natijali faoliyat bilan bog'liq ma'noviy guruhlarga
mansub fe'llarni o'z ichiga oladi. Fe'llar bir umumiy so'roqqa-nima qilmoq? so'ro-
g'iga javob bo'ladi. Fe'llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ham ikki guruhga
bo'linadi: 1) mustaqil fe'llar; 2) yordamchi fe'llar.

1. Mustaqil fe'llar lug'aviy ma'noga ega bo'lib, nutqiy jarayonda biror gap
bo'lagi vazifasida ishlatiladigan fe'llardir. Mustaqil fe'llar turli grammatik
kategoriyalarga birlashadigan sof fe'l va vazifadosh shakllardan tashkil topadi.
Masalan: keldim - aniq nisbat, bo'lishli, xabar mayli, o'tgan zamon, birinchi
shaxs, birlik kabilar muayyan grammatik kategoriyalarni ifodalovchi sof
fe'llar hisoblansa; kelgan - sifatdosh, kelgach - ravishdosh, kelish -harakat
nomi shaklida ekanligi esa fe'lning vazifadosh shakllaridir.

2. Yordamchi fe'llar mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lmay, turli
grammatik ma'no va vazifalarni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladigan

fe'llardir. Yordamchi fe'llar o'z xususiyatiga ko'ra quyidagi turga bo'linadi: 1) qo'shma fe'l yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi fe'llar. Masalan: xabar qilmoq, xursand bo'lmoq, tasdiq etmoq kabi; 2) kesim tarkibida bog'lama vazifasini bajaruvchi yordamchi fe'llar. Bu vazifadagi yordamchi fe'llarga a) leksik ma'nosini mutlaqo yo'qotgan sof bog'lamlar, ya'ni edi, ekan, emish to'liqsiz fe'llari kiradi; b) leksik ma'nosini tamomila yo'qotmagan bo'ladi, bo'lmaydi, deyiladi, hisoblanadi kabi bog'lamlar kiradi; 3) fe'llarga birikib, turli qo'shimcha ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'llar: chiq-o'qib chiq, qol-uxlab qol kabi.

Fe'llarning bosh shakli uning o'zak-negiziga -moq affiksini qo'shish orqali yasaladi: o'qimoq, ishlamoq, yozmoq, o'tirmoq, o'qib chiqmoq, bilib olmoq. Ular lug'atlarda ham shu shaklda beriladi.

Fe'llar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sodda fe'llar bir o'zak morfemadan iborat bo'lgan tub: o'qi, kut, kel, ol va yasama: ishla, tozala, oqar, ko'rsat so'zlardan tashkil topadi.

2. Qo'shma fe'llar ikki o'zak morfemaning birikishidan hosil bo'ladi va tarkiban quyidagicha tuzilishga ega bo'ladi: a) ot yoki boshqa turkumga oid so'zlar+fe'l: qaror qilmoq, ahd etmoq, taq etmoq, dod demoq, bayon qilmoq; b) fe'l+fe'l: ishlab olmoq, olib chiqmoq, borib kelmoq, sotib olmoq. Zamon va shax-son qo'shimchalari qo'shma fe'lning ikkinchi qismiga qo'shiladi: borib keldim, olib chiqding kabi. Bunday qo'shma fe'llar ikkita mustaqil ma'noli fe'lning bir umumiy ma'no doirasida birlashuvi va leksikalizatsiyasi asosida shakllanadi;

3. Murakkab fe'llar mustaqil va yordamchi (ko'makchi) fe'l-larning analitik shakli asosida shakllanadi. Bunda aslida mustaqil lug'aviy ma'noli bo'lgan ikkinchi fe'lning grammatikalizatsiyalashu-vi sodir bo'ladi: yuvib bo'lmoq, ko'rib qolmoq, bilib olmoq kabi.

4. Juft va takroriy fe'llar. Fe'llarning juft va takroriy shakllari ham mavjud. Ular quyidagicha xususiyatlarga ega bo'ladi: Qarama-qarshi yoki bir biriga yaqin ikki ma'noli fe'llar birgalikda juft fe'lni hosil qiladi: aytdi-qo'ydi. Bir

fe'ning aynan takrorlanishi takroriy fe'lni hosil qiladi: keldi-keldi, yozadi-yozadi.

3.2. “Devonu lug‘oti-t-turk”da fe’l so‘z turkumiga oid yasama leksemalar etimologiyasi

Bukla (*букла*) – qayir, tahla⁷³. Qo‘lidagi qog‘ozni to‘rtga buklab yon cho‘ntagiga soldi. Bu fe’l qadimgi turkiy tildagi “qayirilgan holat” ma’nosini anglatgan **bo‘k**(*бўк*) otidan eski o‘zbek tilidagi **-la(-ла)** qo‘shimchasi qo‘shib hosil qilingan; keyinchalik **o‘(y)** unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan: **bo‘kla- bukla** (*бўкла= букла*).

Hozirgi tilimizda ham aynan shu mazmunni ifodalab keluvchi ushbu fe’l grammatik jihatdan tub so‘z hisoblanadi. Buning sababi yuqorida keltirilgan buk so‘zi hozirgi kunda ot so‘z turkumi sifatida alohida qo‘llanilmaydi. Ma’no o‘zgarishiga uchraganligi tufayli yoki shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun, ushbu asos fe’l so‘z turkumi sifatida hozirgi tilimizda mavjud. Lekin shuni e’tiborga olishimiz lozimki, o‘zbek tilida fe’l so‘z turkumi orqali fe’l yasalmaydi. Shu tufayli mazkur so‘zga biz yuqorida keltirilganidek yasama so‘z emas tub so‘z deb qarashimiz to‘g‘ri bo‘ladi.

Bo‘yun su (*бойун су*) – bo‘ysun , itoat qil⁷⁴. Ba’zi hodimlar idora rahbarining ko‘rsatmalariga bo‘ysunmay qo‘ydi. Bu so‘z asli qadimgi turkiy tildagi **bo‘yun su** (*бойун су*) birikmasining bir so‘zga birlashishidan hosil bo‘lgan; bir so‘zga birlashganidan keyin **bo‘yun** (*бойун*) so‘zining **un(yн)** qismi talaffuz qilinmay qo‘ygan: *boyun su = boysu* (*бойун су= бойсу*); keyin o‘zlik ma’nosini ifodalovchi **-n(-н)** qo‘shimchasi qo‘shilgan. *boysu + n = boysun* (*бойсу+н = бойсун*). Qadimgi turkiy tilda **su** (*су*) fe’li “**ber**” ma’nosini anglatgan, shunga ko‘ra **bo‘yun su** (*бойун су*) aslida “**bo‘yin ber**” ma’nosini anglatgan va ko‘chma ma’noda “**itoat qil**” ma’nosini anglata boshlagan.

⁷³ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 66-бет

⁷⁴ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 75-бет

Ista (ucma) – istamoq, xohlamoq. Shu kunlarda ko‘nglim tinchlikni istab qoldi. Bu fe’l qadimgi turkiy tildagi “xohish” ma’nosini ifodalovchi *is(uc)* otidan -*ta(-ma)* qo‘shimchasi bilan yasalgan. $is + ta = ista$ ($uc + ma = ucma$).

Hozirgi tilimizda yuqoridagi mazmuni ifodalash uchun qo‘llaniluvchi ushbu fe’l grammatik jihatdan tub so‘z shaklini olgan. Sababi *is(uc)* oti hozirgi tilimizda yuqorida keltirilgani kabi “xohish” ma’nosini ifodalamaydi. Lekin yaxlit holatda ista fe’li “xohlamoq” ma’nosini bildiradi.

Yelpi (йелпи) – biror narsa vositasida shabada hosil qilish. Zaynab shu holda uzoq fursat erini yelpidi. Ushbu fe’lni E.Sevortyan qadimgi turkiy tilda *yelp(йелп)* tasvir so‘zidan -*i(-u)* qo‘shimchasi bilan yasalgan deb taxmin qiladi: $yelp + I = yelpi$ ($йелп + u = йелпи$). Mahmud Koshg‘ariyning izohlashiga ko‘ra yelpindi (йелпинди) “yel (ел kasalligi tegdi”, “shamolni yo‘lladi)” bu so‘z *yel(йел)* otidan -*pi(-nu)* qo‘shimchasi bilan yasalgan: $yel + pi = yelpi$ ($йел + nu = йелпи$).

Bugungi kunda ham keng iste’molda qo‘llanilib kelinayotgan bu so‘z, issiqlash natijasida biror narsa bilan shamol qilish ma’nosini saqlab qolgan. Uning tuzilishi esa biroz o‘zgargan ya’ni tub so‘z shaklini olgan. Biz yel so‘zini shamol so‘zining sinonimi sifatida qo‘llaymiz, lekin o‘zbek tilida -pi qo‘shimchasi orqali hozirda so‘z yasalişini kuzatmaymiz.

Abdira (абдыра) – gangi, dovdira. Nega obdirab qolding, bor gapni shartta aytaver⁷⁵. Bu fe’l qadimgi turkiy tilda ikkilanish ma’nosini anglatuvchi *ab(ab)* taqlid so‘zining -*dir(-дыр)* qo‘shimchasi qo‘shilib kengaygan shaklidan -*a(-a)* qo‘shimchasi orqali hosil qilingan. Vaqt o‘tishi bilan o‘zbek tilida so‘z boshlanishidagi *a* unlisi *o* unlisiga almashgan, *ы* unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: ($ab + dir = abdir$) + $a = abdira = obdira$ ($(ab + дыр = абдыр) + a = абдыра = обдыра$).

Alqa (алқа) – omonlik, omad, baxt tila (oz ishlatiladi)⁷⁶. Botirlarni olqaydi, hurmatlaydi bu diyor. Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “xursand qil”, “maqta” ma’nolarini anglatgan *al (ал)* fe’lidan “takror” ma’nosini ifodalovchi -*qa(-қа)*

⁷⁵ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 246-бет

⁷⁶ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 253-бет

qo‘shimchasi bilan hosil qilingan; o‘zbek tilida so‘z boshidagi **a** unlisi **o** unlisiga almashgan: $al + qa = alqa = olqa$ ($ал + қа = алқа = олқа$).

Yuqorida keltirilgani kabi bu so‘z hozirda kam ishlatiladi, ushbu so‘z ifodalaydigan mazmuni berish uchun tilimizda uning boshqa variantlaridan foydalaniladi. Bu so‘zning qo‘llanilishini esa ba‘zi badiiy asarlar, jumladan she‘rlar tarkibida uchratishimiz mumkin.

Sag‘a (caza) – savagich bilan urib tit, yumshat.⁷⁷ Yashil g‘o‘za tuplarini jala xuddi yung savaganday qattiq savalayotganini ko‘rish mumkin edi. Bu fe‘l qadimgi turkiy tildagi “yung titadigan qo‘sh chiviq” ma‘nosini anglatgan **sag‘(caz)** otidan **-a** qo‘shimchasi bilan yasalgan; o‘sha davrlardayoq **g‘(z)** undoshi **v** (**e**)undoshiga almashgan: $sag' + a = sag'a = sava$ ($caz+a = caza = cava$).

Bu so‘z ham hozirgi tilimizda ayni shu ma‘noni anglatib keladi, ammo grammatik jihatdan tub so‘z hisoblanadi.

Sayla (cavla) – ovoz berish yo‘li bilan biror lavozim yoki vazifaga tayinla, yoqlab ovoz ber⁷⁸. Sizni jamoamizga rahbar qilib saylamoqchimiz. Bu fe‘l asli qadimgi turkiy tildagi “so‘z”, “nutq”, “xabar” ma‘nosini anglatgan **sav (cav)** otidan **-la(-la)** yasovchi qo‘shimchasini qo‘shib, shu bilan yasalgan; keyinchalik **v(e)** undoshi **y(y)** undoshiga almashgan: $sav + la = savla = sayla$ ($cav+ la = cavla = сайла$).

Hozirgi kunda ushbu so‘z o‘zining yasamalik xususiyatini y‘oqotgan bo‘lib tub so‘z sifatida qaraladi. Mazmunan esa yashirin yoki oshkora usulda ovoz berish yo‘li bilan davlat yoki o‘zini-o‘zi boshqarish organlari a‘zolidigiga o‘tkazmoq, tanlamoq, saralab olmoq ma‘nolarini anglatadi.

Sarg‘ar (capzap) – sariq tus ol. Eshik salgina ochilib, xolaning sarg‘aygan ozg‘in yuzi ko‘rindi. Bu fe‘l o‘zbek tilida **sariq (сарық)** sifatidan **-ay(-ay)** qo‘shimchasi bilan yasalgan. Qo‘shimcha qo‘shilishidan keyin ikki unli oralig‘idagi **q(k)** undoshi **g‘(z)** undoshiga almashgan, ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan: $sariq + ay = sarig'ay = sarg'ay$ ($сарық+ай=сарыгай=$

⁷⁷ Кошғарий.Маҳмуд .Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. -Тошкент: ЎзФА нашриёти. III 1960. 365–б

⁷⁸ .Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Тошкент: Университет 2000. 273-бет

capzai). Qadimgi turkiy tilda bunday fe'l *sarig'* (*capuz*) sifatidan *-ar* (*-ap*) qo'shimchasi bilan yasalgan (II. 218)., bu yerda ham ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan: *sarig' + ar = sarg'ar* (*capuz + ap = capzap*)⁷⁹. Ko'rib turganimizdek mazkur so'z bugungi kunda *sarg'ar* emas *sarg'ay* shaklida qo'llaniladi va mazmun jihatidan hech qanday o'zgarishlarga uchramaganligini ta'kidlab o'tishimiz darkor. Shakl jihatidan ham ushbu so'z o'zining yasamalik xususiyatini saqlab qolgan. Hozirda ham ushbu leksema rang-tus bilidiruvchi sariq sifatidan fe'l yasovchi *-ay* qo'shimchasi orqali yasalgan deb tahlil qilamiz.

Suvg'ar (**сувғар**) – o'simlikka suv quy, hayvonga suv ber⁸⁰. Yig'lab-yig'lab marza olsang, kulib-kulib sug'orasan (Maqol). Qadimgi turkiy tilimizda va bugungi kunda ham ma'nosi o'zgarmagan bu fe'l asli *suvg'ar* (*cyβzap*) shaklida talaffuz qilingan. Devon bo'yicha tuzilgan indeksga ilova qilingan grammatik ko'rsatgichda bu fe'l *suv* (*cyβ*) otidan *-g'a* (*-za*) qo'shimchasi bilan yasalgan deb ta'kidlangan. Asli bu so'z *suv* (*cyβ*) otidan *-g'a* (*-za*) qo'shimchasi bilan yasalgan fe'lga kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi *-r(-p)* qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan; o'zbek tilida *v(β)* undoshi keyingi davrlarda talaffuzda aks etmay qo'ygan. (turk tilida esa bu holat *g'(z)* undoshida kuzatiladi), *g'(z)* undoshidan keyingi *a* tovushi keyinchalik *o* tovushiga almashgan va shu holatda qo'llanila boshlangan: (*suv + g'a = suvg'a*) + *r = suvg'ar = sug'ar = sug'or* ((*cyβ + za = cyβza*) + *p = cyβzap = cyғap = cyғop*).

Mazkur so'z bugungi o'zbek tiliga *sug'or* shaklida yetib kelgan va keng qo'llaniladi. Biroq ma'no torayishi ya'ni so'zning tublashishi yuz bergan. Bunday fikrlashimizga sabab shundaki, bugungi kunda *suv* so'zi mavjud, ammo *g'a* so'z yashovchi qo'shimchasi mavjud emas. Aynan ushbu so'zning sinonimi sifatida keyinchalik yuzaga kelgan *suvla* so'zini esa yasama deb aytishimiz mumkin. Shundan kelib chiqib taxmin qilishimiz mumkinki, ehtimol turkiy tildagi *-g'a* so'z yasovchisi va hozirgi tilimizdagi *-la* so'z yasovchisi bir- biriga bog'liq bo'lishi ham mumkin.

⁷⁹ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 273-бет

⁸⁰ Кошғарий.Маҳмуд .Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. - Тошкент: ЎзФА нашриёти. III. 1960. 289–6

Tashu (mauy) – narsani bir joydan ikkinchi boshqa bir joyga olib bor⁸¹. To‘ybeka ichkari bilan tashqari ga yugurib, dasturxon yangilar, choy tashir edi. Devon tarkibida ham shunday izoh berilganligidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ushbu so‘z o‘sha davrda tilda ham shunday ma‘noni anglatgan. Mazkur fe‘l asli “**sirt**” ma‘nosini anglatuvchi **tash(mau)** otidan **-u(-y)** qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan. Keyinchalik o‘zbek tilida so‘z oxiridagi **u(y)** unlisi **i(u)** unlisiga almashgan: $tash + u = tashu = tashi$ ($mau + y = mauy = mauuu$).

Uyal (yūal) – hijolat tort, nomus qil⁸². Er yigitning uyalgani – o‘lgani (Maqol). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “hijolat”, “nomus”, “andisha” ma‘nosini ifodalovchi **uy(yū)** otidan **-a(-a)** qo‘shimchasi bilan yasalgan fe‘lga o‘zlik ma‘nosini ifodalovchi **-l(-l)** qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan; ($uy + a = uya$) $+ l = uyal$ ($(yū + a + yūa) + l = yūal$).

Hozirgi tilimizda bu so‘zni asos va qo‘shimchalarga yuqoridagi kabi ajrata olmaymiz. Sababi shundaki, bu so‘zda ma‘no torayishi yuz berganligi tufayli so‘z yaxlit holatda o‘sha davrdagi ma‘noni o‘ziga qabul qilgan. Ko‘rib turganimizdek devonda yasama sifatida keltirilgan bir qancha fe‘llar bugungi kungacha ma‘no yaxlitligiga ega bo‘lgan holatda yetib kelgan, ya‘ni dastlabki asoslarning o‘z ma‘nolarini yo‘qotishi va buning natijasida so‘zlar qo‘shimchalar bilan bir butun holatda mazmun ifodalash xususiyatini olgan.

Uyg‘an (yūzan) – fiziologik sokinlik holatidan chiqish. Ko‘pchilik qariyalar juda erta uyg‘onadi. Bu so‘z asli **uyg‘a(yūza)** fe‘lidan “o‘zlik” ma‘nosini ifodalovchi **-n(-n)** qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan(uyg‘at fe‘li bilan qiyoslash orqali buni aniq ko‘rishimiz mumkin); **uyg‘a (yūza)** fe‘li esa qadimgi turkiy tildagi “bedor” ma‘nosini anglatgan **oyuq (oūyq)** so‘zidan **-a** qo‘shimchasi bilan yasalgan; **a** qo‘shimchasi qo‘shilishi bilan **q(κ)** undoshi **g‘(z)** undoshiga almashgan, keyinchalik ikkinchi bo‘g‘in tarkibidagi tor unli talaffuzda aks etmay qo‘ygan. Aynan shu bo‘g‘indagi **a** unlisi **o** unlisi bilan almashgan, so‘z boshidagi **o** unlisi **u** unlisiga almashgan(ba‘zi bir o‘zbek shevalarda hozir ham bu o‘rinda o

⁸¹ Раҳматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 325-бет

⁸² Кошғарий.Маҳмуд. Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. - Тошкент: ЎзФА нашриёти. III.1960. 354–6.

aytilishi kuzatiladi):(oyuq + a = oyuqa) + n = oyuqan = oyug'an = uyg'an = uyg'on ((ойуқ+а= ойуқа)+н= ойуқан= ойуган= уйган= уйгон)⁸³. Hozirda ham yuqorida keltirilgan mazmunini saqlab qolgan ushbu so'z keng iste'moldagi fe'llardan biri hisoblanadi.

Ichturdi (ичтурди) – suv ichirmoq. U menga suv ichtirdi (Maqol). Boshqalarning buyurishi holatida suv ichish ma'nosida qo'llaniladi⁸⁴. **Ichurdi (ичурди)** so'zi ham xuddi shunday ma'noda qo'llaniladi. Maqolda shunday keltirilgan: Suv ichirmasga sut ichir. Senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil degan ma'noda ishlatiladi. Bu kabi fe'llarda ishda ikki shaxsning borligi qoidadir. Ikki shaxsning biri – buyuruvchi, ikkinchisi bajaruvchidir. Mazkur fe'llar ikki harflidir. Bu maqsadni anglatish uchun o'zakka ikki harf orttirib yasaladi.

Ko'rib turganimizdek ushbu fe'l o'zining etimologik mazmunini yo'qotmagan, ya'ni bugungi tilimizda ham aynan yuqorida keltirilgan mazmunni anglatish uchun qo'llaniladi. Shakliy jihatdan esa kichik o'zgarishga uchragan. u(y) tovushi i(и) tovushiga almashgan va shu holatda tilimizda saqlanib qolgan. Bugungi tilimizda ushbu ikki so'z ichtirdi, ichirdi shakllarida qo'llaniladi. Grammatik jihatdan ham tub so'z sifatida yetib kelgan.

O'rtandi (ўртанди) – kuydi, yondi. Kun botganidan keyin agar bulut qizarsa aynan shu holatni bulut o'rtandi deyiladi. Turklar bu holatni yaxshilikka yo'yadilar. Maqolda shunday kelgan: Kechqurun bulut qizarsa, xotin o'g'il tuqqandek, ertalab bulut qizarsa, dushman uyga kirgandek. Oxirgisini yaxshi hisoblamaydilar⁸⁵. Bu fe'l qadimgi turkiy tilda **yon** ma'nosini anglatgan **o'r (ўр)** fe'lga **-o't (-ўм)** qo'shimchasini qo'shib yasalgan otdan **-a** qo'shimchasi bilan yasalgan. Dastlab qo'shimchadagi **o'(ў)** unlisi talaffuz qilinmay qo'ygan. Keyinchalik, birinchi bo'g'indagi **o'(ў)** unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan. Ko'rib turganimizdek biz bugungi kunda tub sifatida qo'llaydigan, keng iste'molda bo'lgan mazkur fe'l devonda yasama leksema sifatida ko'rsatilgan.

⁸³ Раҳматуллаев.Ш Ўзбек тилининг этимологик луғати -Тошкент: Университет. 2000. 385-бет

⁸⁴ Кошғарий.Маҳмуд. Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. - Тошкент: ЎзФА нашриёти. III 1960. 224–6

⁸⁵ Кошғарий.Маҳмуд. Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. - Тошкент: ЎзФА нашриёти. III. 1960. 252–6..

Asarda ko‘rsatilishicha dastlab fe’ldan ot yasalgan, keyin yasama otdan yana fe’l yasovchi qo‘shimcha orqali fe’l hosil qilingan. Demak, ushbu fe’lning etimologiyasiga shakliy tomonidan yondoshsak unda tublashish (tub so‘zga aylanish) kuzatiladi. Bugungi kunda leksemadagi keyingi -n(-н) qo‘shimchasi nisbat va -di (-ди) qo‘shimchasi esa o‘tgan zamon shakllari hisoblanadi. Mazmun jihatidan yonmoq, kuymoq, qiynalmoq ma’nolarini saqlanib qolgan.

O‘qi (**ўқу**) – yozuvni talaffuz qil. Xatni chiroqqa turib o‘qidi. Bu fe’l asli “baland tovush”, “qichqiriq” ma’nosini anglatgan **oq** (**оқ**) otidan **-i** (**-и**) qo‘shimchasi bilan yasalgan⁸⁶. O‘zbek tilida **и** unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: $oq + i = oq = o'qi$ ($oq + и = oqы = oqu = ўқу$). Bu so‘z dastlab “baland tovush bilan ayt”, “qichqir” – ma’nosini anglatgan va shu holatda qo‘llangan. “Yozuvni talaffuz qil” – ma’nosi esa yozuv paydo bo‘lganidan keyin yuzaga kelgan va bugungi kunda ham shu mazmunni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Demak ushbu fe’l yozuv paydo bo‘lishidan oldin ham mavjud bo‘lgan va qo‘llanilgan, buni yuqoridagi fikrlar dalillab turibdi. Hozirda esa ushbu fe’lni yasama deya olmaymiz. Chunki asosdagi oq yuqorida keltirilgan “baland tovush”, “qichqiriq” ma’nolarini saqlab qolmagan. Faqatgina keyingi vujudga kelgan yozuvni o‘qi ma’nosini ifodalash uchun tub so‘z sifatida tilimizda qo‘llaymiz. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, qadimgi turkiy tildagi ba’zi leksemalar bugungi tilimizda o‘zining ilk etimologik mazmunini yo‘qotib, o‘zi shakllanishiga asos bo‘lgan keyingi mazmunini saqlab qolgan va o‘zidan hosil bo‘lgan hosilalardan birining ma’nosini ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Oqsha (**оқша**) – bir xillikka ega bo‘l. Bolasi xuddi otasiga o‘xshabdi. Ushbu fe’l asli qadimgi turkiy tildagi “*bir xil belgisi bor*” ma’nosini anglatgan **oq**(**оқ**) sifatidan **-sha**(**-ша**) qo‘shimchasi bilan yasalgan. O‘sha davrlardayoq **q**(**қ**) undoshi **x** (**х**) undoshiga almashgan: $oq + sha = oqsha = oxsha = o'xsha$ ($oq + ша = oqша = oxша = ўқша$)

⁸⁶ Кошғарий. Махмуд Девону луғоти-т-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. -Тошкент: ЎзФА нашриёти. III 1960. 440–б..

Ushbu fe'l hozirgi kunda yuqorida keltirilgan mazmuni anglatish uchun qo'llaniladi. Ammo shakliy etimologiyasi o'zgargan ya'ni tovush o'zgarishi, so'zning shaklan bitta so'zga aylanishi yuzaga kelgan. E'tiborlisi shundaki, ushbu misol orqali *-sha(-ua)* qo'shimchasi bilan ham fe'l yasalganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo bu qo'shimcha orqali hozirgi tilimizda so'z yasalishi kuzatilmaydi. Oldin mavjud bo'lgan ushbu qo'shimcha bugungi o'zbek tilida yuqorida keltirilgan kabi holatlarda so'z bilan birlashib ketgan va umumiy holatda ma'no ifodalaydi. Ularni asos va so'z yasovchi qo'shimcha sifatida ajrata olmaymiz.

Qavi (қави) – avra-astari orasiga paxta solingan narsani yirik-yirik qilib tik. Uyga kelganda onasi ayvonda ko'rpa qavib o'tirarar edi. Ushbu leksema eski o'zbek tilida va turkiy tilda ma'nosi o'zgarmagan holatda qo'llanilgan. Barcha davrlarda yuqoridagi ma'noni berish uchun mavjud bo'lgan ushbu bu fe'lni qadimgi turkiy tildagi qavish(қавыш), qavsa(қавса) so'zlari bilan qiyoslashdan ko'rinadiki, qadimgi turkiy tilda *qav (қав)* fe'li mavjud bo'lib, qavi fe'li ana shu fe'lga "takror" ma'nosini ifodalovchi *-i(-yl)* qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan; keyinchalik *yl* unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: $qav + i = qavi$ (қав+ ы= қавы= қави). Ushbu fe'l hozirgi kunda ham keyingi o'zgargan qavi shaklida yuqoridagi mazmuni ifodalash qo'llaniladi. Faqat ushbu so'zni oldingidek qav fe'lidan kelib chiqqan yasama leksema sifatida tahlil qila olmaymiz, ya'ni ushbu so'z ham bugungi kunga kelib tub so'zga aylangan.

Buk (бук) – *qayir, eg.* Qog'ozlarni tekis taxlab, yuqori chap burchagini bukib, to'g'nag'ich bilan birkitti. Qadimgi turkiy tilimizda shunday ma'noni anglatgan va keng qo'llanilgan ushbu fe'l *bo'k (бۆк)* tarzida talaffuz qilingan, o'zbek tilida *o'* (ö) unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan: $bo'k=buk$ (бۆк= бук). Ushbu fe'l bugungi tilimizda ham shunday ma'noni anglatish uchun qo'llaniladi va buyumlarga nisbatan ularni qayirish uchun kimgadir buyruq berish ma'nosida ko'proq qo'llaniladi. Qog'ozni buk, olma daraxtini qayir kabi hollarda qo'llaniladi.

Qavi (қави) – avra-astari orasiga paxta solingan narsani yirik-yirik qilib tik. Uyga kelganda onasi ayvonda ko'rpa qavib o'tirarar edi. Eski o'zbek tilida ham

shu ma'noni anglatgan bu fe'lni qadimgi turkiy tildagi qavish(қавыш), qavsa(қавса) so'zlari bilan qiyoslashdan ko'rinadiki, qadimgi turkiy tilda *qav* (қав) fe'li mavjud bo'lib, qavi fe'li ana shu fe'lga "takror" ma'nosini ifodalovchi *-i(-ы)* qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan; keyinchalik *i(ы)* unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: *qav + i = qavi* (қав+ ы= қавы= қави). Ushbu fe'l hozirgi kunda ham keyingi o'zgargan qavi shaklida qo'llaniladi.

Bob bo'yicha xulosa

Qadimgi turkiy tilda qo'llanilgan fe'llarni tahlil qilish jarayonida biz ko'proq ularning mazmunan mustaqil ma'noga ega bo'lgan ikki yoki uch tovushdan iborat bo'lgan asosga yasovchi qo'shimchalar qo'shish orqali yasalganligiga guvoh bo'ldik. Yasalish asosi va yasalma ham bugungi kundagi kabi bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar ekanligiga yuqorida keltirilgan misollar asos bo'la oladi. Shundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, o'sha davr tilida ham yasalish jarayoniga o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan.

Yasama fe'llarning bugungi kunda qo'llanilishiga to'xtalib o'tishimiz ham bu o'rinda juda muhimdir. Sababi shundaki, ushbu fe'llarda mazmuniy o'zgarish qisman kuzatilgani holda, shakliy o'zgarishlar juda farq qiladi. Biz keltirgan ko'plab misollarimizdan ma'lumki devon yozilgan davrda qo'llanilgan va yasama sifatida qaralgan fe'llarning juda ko'p qismi bugungi kunda tub so'zga aylanib yaxlitlangan. Bunga sabab esa yasalish asosidagi so'zlar o'zining asl etimologiki ma'nosini yo'qotganligidir.

Devon tarkibidagi tub fe'llar ham o'ziga xos bo'lib ular asosan 2,3,4 bo'g'inli ekanligini kuzatdik. Etimologik jihatdan ular ko'proq shakliy o'zgarishlarga uchragan. Lug'atda keltirilgan bir qancha tub fe'llar hozirgi tilimizga tovush o'zgarishlariga uchragan holda yetib kelgan. Ulardagi asosiy o'zgarishlar unilardagi cho'ziqlikning yo'qolishi, o'zaro o'rin almashishi, shuningdek, talaffuzdagi qulaylikka erishish uchun ba'zi bir undoshlarning ham almashganligida kuzatiladi.

Bizga ma'lumki devonda asosan otlar va fe'llarga oid so'zlar jamlangan. Muallif fe'llarni ham otlarni ham lug'atda aks ettirishda o'sha davrda keng

iste'molda bo'lganlarini tanlab, faqat ularnigina yoritishga harakat qilgan. Hozirda ham ulardan bir qismi tilimizda qo'llanilishi ham asarning etimologik ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi. Vaholanki, mazkur asar bo'lmaganida biz ushbu so'zlar haqida, ularning qadimgi turkiy tilimizda qo'llanilgan yoki qo'llanilmaganligi, qanday shakl va ma'no ifodalaganligi haqida hech qanday ma'lumotlarga ega bo'la olmas edik.

UMUMIY XULOSA

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari qomusiy asar hisoblanadi. Olimning ikkita asari bo'lib, uning faqat "Devonu lug'oti-turk" asarigina bizga yetib kelgan, xolos. Buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asari Qoraxoniylar davrining noyob durdonasi hisoblanadi. U o'lmas obida sirasiga kiradi va o'zida davr tili, adabiyoti, tibbiyoti, tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, hunarmandchiligi va astronomiyasi haqidagi bilimlarni qamrab olgan. Uning asari o'z davri uchun benihoya katta voqea bo'lgani kabi, turkologiya fani sohasida ham birinchi namuna bo'ldi. Mahmud Koshg'ariyning o'zi esa turkologiya fanining dastlabki ustodiga aylandi, turkologiyaning maxsus fan sifatida rivojlanishiga asos soldi. Shuning uchun ham u allaqachonlar jahon miqyosida buyuk olim sifatida tanildi.

Turkologlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, arxeologlar hanuz unga ulug' ustod sifatida chuqur hurmat bilan qarab yondashadilar, unga asoslanadilar. Afsuski, bu ulug' olimning muhim asari hanuzgacha jamoatchilik nazaridan chetda qolib ketgan va jiddiy o'rganilmagandir. Ana shu davr tilida ma'lum me'yorlarni yaratishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Shu ehtiyoj M. Koshg'ariyni "Devonu lug'oti-turk" asarini yozishga da'vat etdi. Bu asar turkologiyaning dastlabki namunasi sifatida o'sha davr madaniy hayotida va tilshunoslik tarixida alohida sahifa ochdi.

Ushbu dissertatsiya ishida "Devon"dagi ot va fe'l so'z turkumlarining etimologiyasiga oid ma'lumotlar to'plandi. Jamlangan so'zlar bajaradigan vazifasiga qarab, bob va qismlariga taqsimlab chiqildi.

Ikkinchi bobda tub va sodda yasama otlar va ularning etimologiyasi haqida keng va atroflicha fikr yuritildi. Uchinchi bobda fe'l so'z turkumiga oid ma'lumotlar jamlandi. "Devon"ni o'rganish jarayonida ba'zi so'zlar bizning diqqatimizni tortdi. Masalan, so'zug' va qudurg'aq so'zlarining ma'nosi hozirgi o'zbek adabiy tilimizda saqlanib qolmagan. Natijada lakuna hodisasi paydo bo'lmoqda. Tilshunoslikda avval iste'molda bo'lgan, bugungi kunda esa boshqa so'z tarkibiga kirib, o'zining asosiy tushunchasini yo'qotgan so'zlarda "bo'shliq joy" (lacuna) vujudga keladi.

Jumladan, “Devon”da so‘zug‘ – ko‘ylak etagining ikki yoqasigacha bo‘lgan qismi hisoblangan. Hozirgi adabiy tilda esa bu tushuncha yo‘qolib, ko‘ylakning pastki etak qismi deb nomlanadi, xolos. Koshg‘ariy choponning orqa tomoni etak qismini qudurug‘aq deb atagan. Bugungi kunda esa choponning old va orqa qismlari umumiy etak holida qo‘llaniladi.

Biz ilmiy izlanish davomida shu fikrga keldikki, afsuski, o‘sha davrdagi turkiy tildagi so‘zlarning uchdan ikki qismi bugungi kunda iste‘moldan chiqib ketgan. Bu esa achinarli hodisa hisoblanib, o‘zbek tili so‘z boyligining kamayishiga olib kelgan. Taklif sifatida bir qancha fikrlarni berib o‘tmoqchimiz: Avvalo, “Devonu lug‘oti-t- turk” asaridagi mustaqil so‘z turkumiga kiruvchi barcha so‘zlarni izohli lug‘at sifatida shakllantirish, ularning ichidagi ba‘zi so‘zlarni hozirda iste‘molda bo‘lgan so‘zlarning sinonimi sifatida foydalanishga kiritish va “realiya”larni aniqlash lozim. “Devon”dagi ayrim so‘zlar hali ham shevalarda saqlanayotganligi ham quvonarli hol, albatta. Ularning qo‘llanilish darajasini yanada mukammal o‘rganilib, adabiy me‘yor sifatida qabul qilinsa, maqsadga mufoviq ish bo‘lardi, deb o‘ylaymiz.

Ming afsuski, o‘zbek tilimiz ancha tuzatilish va to‘ldirishlarga muhtojdir. Bunga sabab esa chet tilidan o‘zlashadigan leksemalarning ko‘pgina qismi tilimizda o‘z holicha iste‘molga kiritilmoqda. Agar “Devonu lug‘oti-t-turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Muhokamat ullug‘atayn”, “Sarf” kabi ajdodlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan asarlarni chuqurroq o‘rgansak, o‘zlashma leksemalar uchun, albatta, o‘zbekcha muqobil keluvchi variantlarini topamiz. Faqatgina to‘xtovsiz harakat, e‘tibor va chidamlilik o‘zbek tilini Navoiy davridagidek “turkiy tillar gultoji”ga aylantira oladi. Biz, bo‘lajak tilshunoslar ham o‘z oldimizga qo‘ygan maqsad sari shahdam qadam tashlab, o‘zbek tilining dunyo tillari miqyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga munosib hissa qo‘shishga astoydil harakat qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016. – 58 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши кекрак. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 104 б.
3. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир// Халқ сўзи, 2017-йил, 4 август.
4. Каримов, Ислон Абдуғаниевич. Юксак маънавият – енгилмас куч. Иккинчи нашри. –Тошкент: Маънавият, 2010. – 176 б.
5. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 40 б.
6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – 58 b.
7. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kekrak. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.
8. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir// Xalq so‘zi, 2017-yil, 4 avgust.
9. Karimov, Islom Abdug‘anievich. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Ikkinchi nashri. –Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – 176 b.
10. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – 40 b.
- 11 Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. Т. I-III. -Т: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. -499 б. Т.

II. 1961. 427 б. Т. III. 1963. -466 б.

12. Махмудов Қ. Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибатул-ҳақойиқ» асари ҳақида: кириш, фонетика, морфология, матн, транскрипция, шарҳ, луғат. -Т.: Фан, 1972.- 298 б.

13. Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. –Самарқанд, 1928. – 128 б.

14. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов). –Т: Фан, 1971. -786 б.

II. Китоблар

15. Абдурахмонов А., Рустамов А. Қадимги туркий тил. -Т.: Ўқитувчи, 1982. – 166 б.

16. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. -Т., 1999. -88 б.

17. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973. -320 б.

18. Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. –Т.: Ўзбекистон, 1994. -118 б.

19. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Т. I-IV. Э. Фозилов таҳрири остида. -Т.: Фан, 1983-85. Т. I. 1983. -782 б. Т. II. 1983. -642 б. Т. III. 1984. -622 б. Т. IV. 1985. – 636 б.

20. Асомиддинова М. Кийим–кечак номлари. –Т.: ФАН, 1981. – 98 б.

21. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. –Т.: Университет, 2007. -339 б.

22. Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси (ўқув-услубий кўлланма). –Т.: Тошкент давлат педагогика университети, 2002. -137 б.

23. Базарова Д. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. -Т.: Фан, 1978. -223 с.

24. Базарова Д., Шарипова К. Развитие лексики тюркских языков Средней Азии и Казахстана. -Т.: Фан, 1990. -274 с.

25. Батманов Й. Язык енисейских памятников древнетюркской

письменности. – Фрунзе: АН Киргизистан, 1959. -218 с.

26. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи.-Т.: Фан, 1991.-152 б.

27. Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. - Т.: Университет, 2003. -240 б.

28. Дадабоев Х., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. –Т.: Фан, 2007. 156 б.

29. Древнетюркский словарь. -Л.: Наука, 1969. -676 с.

30. Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари (ўзбек, уйғур, қозоқ, қирғиз, қорақалпоқ, туркман тиллари материаллари асосида) . –Т.: Фан, 1966. –150 б.

31. Исмоилов И. ва бошқалар. Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллар лексикасидан (полиз экинлари, мевали дарахт номлари ва уй-рўзғор буюмлари лексикаси материаллари асосида). –Т.: Фан, 1990. – 258 б.

32. Исследование по лексике и грамматике тюркских языков. -Т.: Фан, 1980. -148 с.

33. Исҳоқов М., Содиқов Қ., Омонов Қ. Мангу битиклар. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009. -115 б.

34. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. -М.-Л., 1951. -452 с.

35. Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. –Т.: Ижод, 2006.

36. Мусаев К. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении (Западно-кыпчакская группа). -М., 1975. -359 с.

37. Мусаев К. Лексикология тюркских языков. -М.: Наука.-1984. -228с.

38. Мухторов А., Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1995. -160 б.

39. Насипов В. Язык орхоно-енисейских памятников. -М.,1960. – 248с.

40. Sanaqulov U. O‘zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik me’yorlarning ilk shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlari. – Т.: Navro‘z, 2015.

41. Севортян Э. Аффиксы словообразования в азербайджанском языке.

Опыт сравнительного исследования. –М.: Наука, 1966. -437 с.

42. Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М.:Наука, 1974. -767 с.

43. Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву «Б».-М.: Наука, 1978. -349 с.

44. Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву «В», «Г», «Д». -М.: Наука, 1980. -395 с.

45. Севортян Э., Левитская Л. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву «Ж», «Й». -М.: Наука, 1989. -292 с.

46. Содиков Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. -207 б.

47. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1995. -264 б.

48. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. -Т.: Фан, 1965. -171 б.

49. Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи. –Т.: Фан, 2008. -120 б.

50. Аманжолов А. Материалы и исследования по истории древнетюркской письменности. Автореф. дис. д-ра филол. наук. -Алма-ата, 1975. -49 с.

51. Аширалиев К. Древнетюркские элементы в современных тюркских языках. На материале орхоненисейских памятников. Автореф. дис. ...канд. филол. наук. -Фрунзе, 1969. -20 с.

52. Базарова Д. Семантика наименований частей тела и производных от них в тюркских языках. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Т., 1967. -22 с.

53. Исмоилов И., Мелиев К., Сапаров М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллари лексикасидан тадқиқот. –Т.: ФАН, 1990. -214 б.

54. Лосева-Бахтиярова Т. Военная лексика тюркских языков. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -М., 2005. -24 с.

55. Раджапов А. Язык орхоно-енисейских памятников древне-тюркской письменности. Автореф. дис. канд. филол. наук. -Баку, 1967. -17 с.

56. Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика. Филол. фан. ном. дис. автореф. -Т., 2007. -26 б.

IV. Журналлардаги мақолалар

57. Баскаков Н. К проблеме китайских заимствований в тюркских языках // Советская тюркология. –Баку, 1987. - № 5. -С. 69-75.

58. Дадабоев Ҳ. Қадимги туркий ёдгорликлардаги атамалар ҳақида // Адабий мерос.- Тошкент, 1998. -№2. -Б. 12-16.

V. Илмий тўпламлардаги мақолалар

59. Исхаков М. Элементы согдийского языка в современном узбекском языке // Историко-культурные контакты народов алтайской общности: XXIX сессия РИАС. –Т.: 1986. II. Лингвистика. –М.: Наука, 1986. –С. 61-62

60. Исхаков Ф. Наблюдения по лексике в области прилагательных в тюркских языках. –В сб.: Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: 1961. –С. 32-36.

61. Кармышева Б.Х. Следы средневековых этнонимов и антропонимов в узбекских теологиях // Ономастика Средней Азии. Фрунзе. 1978. –С. 18-28.

62. Покровская Л.А. Термины родства в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. –М.: 1961. –С. 4-35.

63. Щербак А. К истории узбекского литературного языка древнего периода // Академику В.А.Гордлевскому к его 75-летию. –М.: 1953. –С. 317-323.

64. Щербак А. Названия домашних и диких животных в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. –М.: Акад. наук. СССР, 1961. –С. 82-150.

Internet saytlari

www.literature.uz

www.genhis.philol.ru

www.library.ziyonet.uz

www.lingvo-online.ru